

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORASIYA INSTITUTI

«GIDROMELIORATSIYA» fakulteti

«Ekologiya va suv resurslarini boshqarish» kafedrası

Himoyaga ruhsat etilsin

«E va SRB» kafedrası

mudiri prof. Saloxiddinov A.T.

«_____» 2013 yil

Bakalavr darajasini olish uchun

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Mavzu: Toshkent viloyati Bekobod tumani Oybek fermerlar uyushmasi Savrak mahallasini suv taminoti tizimini asoslash.

Bajaruvchi:

Sultonov I.A

Bitiruv ishi rahbari:

prof: Saloxiddinov A.T

Toshkent -2013 yil

Mundarija

Kirish:

I-bob. Xo'jalikning tabiiy va iqtisodiy sharoitlari xaqida qisqacha ma'lumot

1.1 Obektning joylashishi	8
1.2 Tabiiy iqlim sharoiti.....	9
1.3 Relef va gidrogeologik sharoitlar.....	9
1.4 Geologik va gidrogeologiyasi.....	10
1.5 Yo'llari.....	11

II-bob. Suv iste'moli xisobi

2.1 Xo'jalikning bosh plani.....	15
2.2 Suv bilan ta'minlash ob'ektlari.....	15
2.3 Suv iste'moli me'yori.....	15
2.4 Suv iste'moli xisobi.....	17
2.5 O't o'chirishda suv ta'minoti me'yori.....	21
2.6 Suv iste'moli tartibi.....	22

III-bob. Suv ta'minoti sxemalari

3.1 Suv ta'minoti manbasi.....	24
3.2 Suv ta'minotining I- varianti.....	24
3.3 Suv ta'minotining II- varianti.....	26
3.4 Variantlarni texnik iqtisodiy taqqoslash.....	27
3.5 Qabul qilingan suv ta'minoti sxemasi va inshootlar tarkibi.....	27

IV-bob Vodoprovod inshootlari

4.1. Suv olish va tozalash inshootlari hisobi	29
4.2 Sanitariya nazorat zonasi.....	31
4.3.Vodoprovod tarmog`i uni trassalash va gidravlik hisobi.....	40
4.4 Ikkinchi ko`tarib berish nasos stansiyasi va suv tashish quvuri.....	47
4.5 Vodoprovod tarmoqlari va suv keltirish quvurlarining materiallari.....	48

V-bob. Axoli punkti joylashgan tumanda suv resurslarini muxofaza qilish tadbirlari

5.1 Atrof muxitni muxofaza qilish tadbirlarining maqsad va vazifalari.....	49
5.2 Oqova suvlarning ob'ektlariga ta'sir etish zonasida suv resurslarini ximoya qilish tadbirlari.....	50
5.3 Suv ta'minoti bosh inshootlarni muhofaza qilish.....	51

VI bob. Mehnat muhofazasi

6.1 Hayot faoliyat havfsizligining nazariy asoslari.....	53
6.2 Mexnat muxofazasi.....	55
6.3 Fuqoro muhofazasi.....	58
6.4 Yong'in xavfsizligi.....	60
6.5 Birinchi tibbiy yordam.....	63

VII-bob. Tanlangan suv ta'minoti bo'yicha texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar

7.1 Suv ta'minoti tizimi bo'yicha kapital mablag'larni aniqlash.....	78
7.2 Yillik ekspluatasion harajatlarni aniqlash.....	80
7.3 Qurilish ishlarining iqtisodiy ko'rsatkichlar.....	82

Xulosa.....83

Adabiyotlar.....84

Internet ma'lumotlar.....86

KIRISH

Suv insoniyatga berilgan ulug' ne'matdir. Inson organizmining qariyb 75% ni ana shu ulug' ne'mat tashkil etadi. Zero, inson yaratilishidagi 4 unsurдан biri ham- suvdur.

Prizidentimiz I.A. Karimovning —"O'zbekiston mustaqillikka erishish Ostonasida" kitoblarida mustaqillik davrida suv ta'minotiga bo'lgan etibor quydagi jumalarda keltirilgan —Qishloq aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlash respublika dasturini amalga oshirish uchun mablag` va moddiy resurslarni birinchi navbatda sarflash haqida hukumat qarori qabul qilindi. Qishloq aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlash choralari belgilangan respublika dasturining bajarilishi:

- 1990 yilda 2 ming 200 kilometrlik suv tarmoqlari ishga tushdi. Bu esa yana 270 ming aholi ichimlik suvi bilan ta'minlash imkonini berdi;
- 1991 yilda qishloqlarda yana 5,5 ming kilometrlik ichimlik suvi quvurlari ishga tushadi.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 22 yilligi arafasida turibmiz. Ushbu kungacha bizda suv ta'minoti sohasida qanaqa qarorlar qabul qilindi va qanchasi amalga oshirildi, shuni tahlil qilishimiz kerak.

Olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarda aholini ijtimoiy himoya qilish kelajakda qishloq aholisini turmush darajasini ko'tarish va qishloqda infrastruktura yaratish maqsadida Vazirlar Maxkamasi 17.04.98 yil 117 raqamli qarori Qishloq aholisini 1998 yil-2000 yil ichida ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash dasturi qabul qilindi.

Ushbu qaror asosida yangi normativ texnologik sxema ishlab chiqildi, ya'ni, kelajakda mustaqil O'zbekistonni rivojlantirish uchun har tomonlama iqtisodiy va texnologik jihatdan eng ilg'or usullarni joriy etishimiz kerak. Buning uchun biz kelajak muxandislari yaxshi bilim egalari bo'lishimiz shart. Zero hozirgi kunda suv muammosi global muammoga aylanib bormoqda. O'zi yetarli bo'lmagan suv resurslari ham ifloslanib aholi iste'moli uchun yaroqsiz holga kelib qolmoqda. Demak, bundan ko'rinib turibdiki biz yosh injenerlar

zimmasiga yanada ko'proq ma'suliyat yuklamoqda. Aholiga iste'mol uchun yaroqli suv yetkazib berish bizning eng muqaddas burchimizdir.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari moliyaviy-iqtisodiy inqirozni boshidan kechirayotgan bir paytda, Respublikamiz qishloq xo'jaligini yuqori bosqichga ko'tarishda mavjud resurslardan, jumladan suv-er resurslaridan samarali foydalanish, ekinlarni sug'orishning ilmiy asoslangan, takomillashgan agrotexnologiyalarini joriy etish, kam mablag' sarflab, yuqori va sifatli hosil etishtirish shu kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi. Bu borada muhtaram Prezidentimiz I.A. Karimov «Jahon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» asarida qishloq xo'jaligi maxsulotlari ishlab chiqarilishining kengayishi iqtisodiy inqirozni bartaraf etishning asosiy yo'llaridan biri ekanligini ta'kidlaganlar.

Markaziy Osiyo, shujumladan O'zbekiston o'zining geosiyosiy va iqtisodiy ahamiyati, tabiiy insoniy resurslarining boyligi hamda savdo va transport uchun tranzit imkoniyatlarining kengligi tufayli butun dunyoda o'ziga katta e'tiborni jalb etib kelmoqda.

Suv Markaziy Osiyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini va ekologik barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil sanaladi. Mintaqa suv resurslarining 80 % dan ortig'i Qirg'iziston va Tojikistondagi abadiy muzliklar va qorlar hisobiga shakllanadi. Asosiy suvist'emolchisi sanalgan sug'oriladigan dehqonchilikning asosiy maydonlari daryolarning o'rta va quyi oqimida joylashgan O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Ma'lumotlardan ma'lumki, O'zbekistonning o'z hududida shakllanadigan suv zahiralari kam va uning foydalanadigan suv resurslarining qariyb 80 % qo'shni davlatlar: Qirg'iziston va Tojikiston hududidan oqib keladi. Shuning uchun suv resurslaridan tejamli foydalanish O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Iqtisodiyotning barcha sohalarida, ayniqsa eng yirik suv ist'emolchisi

bo'lgan qishloq xo'jaligi sohasida suv resurslaridan samarali foydalanish mamlakat aholisi farovonligini ta'minlashning dolzarb yo'nalishlaridan sanaladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz rahbariyati va hukumati suv tejoychi tadbirlarni amalga oshirish va suv tejoychi texnologiyalarni rivojlantirish yo'nalishidagi ishlarga alohida e'tibor qaratmoqda.

Suv resurslaridan foydalanishni samaradorligini oshirishda sug'orishda suv tejoychi ilg'or texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Jumladan, hozirda kaltaegatlab sug'orish (chustusuli), egat oralatib sug'orish, suv niteskari oqizib egatlar oxirini namlash, subirrigatsiya, tomchilatib sug'orish kabi ilg'or texnologiyalarni qo'llashga katta e'tibor qaratilmoqda. Ekinlardan mo'l va sifatli hosil olishning muhim omillaridan biri sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini barqaror holatda saqlash sanaladi.

Mamlakatimizda bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 29 oktyabrda qabul qilingan «Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yanada barqaror rivojlantirish uchun Meliorativ fond tuzilib uning mablag'lari hisobiga erlarning meliorativ holatini keng qamrovli yaxshilash ishlari amalga oshirilmoqda.

Men ham o'z malakaviy bitiruv ishimda Toshkent viloyati Bekobod tumani Oybek fermerlar uyushmasi „Savrak“ mahallasini suv ta'minoti tizimini asoslab, Mustaqil O'zbekiston Respublikamizni rivojlanishiga o'z hissamni qo'shmoqchiman.

**I-bob. Xo'jalikning tabiiy va iqtisodiy
sharoitlari haqida qisqacha ma'lumot.**

I-bob. Xo'jalikning tabiiy va iqtisodiy sharoitlari haqida qisqacha ma'lumot.

1.1. Ob'ektning joylashishi.

Toshkent viloyati Bekobod tumani Oybek fermerlar uyushmasi "Savrak" mahallasini suv tamini tizimini asoslash.

Savrak mahallasining umumiy yer maydoni 1950-gektar, aholisi 2500-kishi. Savrak mahallasi Dalvarzin cho'li zonasining g'arbiy qismida joylashgan. Qadimda bu yerlardan "Sirdaryo" oqib o'tgan bo'lib, bir nechta qoldiq ko'llar ham mavjud. Yashash joyimizni relyefi asosan tekisliklardan iborat.

Tuproqlari: qumoqli tuproq, och tusli bo'z tuproq va qisman sho'rhok tuproqlar tarqalgan. Yog'inlar juda kam yogadi. Yog'in miqdori 150-200 mm. Shuning uchun bu yerda gurunt suvlarining paydo bo'lishida yog'in suvlari katta o'rin tutmaydi. Tekisliklarning turli joylarida sizot suvlari turli chuqurliklarda uchraydi. Sizot suvlari 2-3 metr chuqurliklarda joylashgan.

Bu yerdagi gurunt suvlarining qolgan asosiy qismlari bosim ostida pastki qatlamlardan sizib chiqadigan yer osti suvlari xisobiga hosil bo'ladi. Oqar suvlarning shimilishi, yog'in suvlari va atrofdagi boshqa suvlarning sizib kelishi natijasida ham bo'ladigan, ichishga yaramaydigan gurunt suvlari ham mavjud bo'lib, bunday suvlar chorva mollarini sug'orish manbai hisoblanadi. Ular 8-12 metr atrofida uchraydi. Gurunt suvlarining ostida qatlamlar orasidagi suvlar joylashgan. Suv o'tkazmaydigan ikki qatlam orasidagi suvlar, turli tog' jinslarning bo'shliqlarida sizib kelayotgan suvlar. Bunday suvlarga qatlamlar orasidagi toza ichimlik suvlari hisoblanadi. Bu suvlar katta bosim kuchiga ega bo'lib, artezian suvlari hosil qilgan.

Mahallamizda shunday bosim kuchiga ega bolgan 5 ta artezian ichimlik kranlari mavjud. Bu aholini asosiy ichimlik suvlari hisoblanadi. Aholini toza ichimlik suvlari bilanta'minlash maqsadida 1950-yilda artezian quduqlari qazilgan. Shundan buyon aholini yer ostidan o'z bosim kuchi bilan ichishga yaroqli bo'lgan jumrakli artezian quduqlari tashkil qilingan.

1970-yilda aholiga ichimlik suvlarini yaqinlashtirish maqsadida bosimli suv minorasi tashkil qilindi. Yer ostidagi, qatlamlar orasidagi suvlarni nasoslar yordamida tortib olib bosimli suv minorasiga yetkazib berildi va har bir ko'chalarga toza ichimlik jumrakli suvlar yetkazib berilgan. Bizning mahallamizdagi bosimli suvlar 100-270 chuqurliklardan otilib chiqadi. Suv bilan ta'minlash uchun yetarli bo'lgan suvlar miqdori sekundiga 2-5 litrni tashkil etadi.

Suvlarni to'yinish manbai mahallamizni sharq tomoni va shimoliy sharq tomonlarimiz bizdan ancha baland bolib 4-5 km narida Qurama tog' tizmalari joylashgan. Biz yashaydigan joy past tekisliklardan iborat. Shuning uchun bu yerdagi suvlar doim bosim kuchiga ega bo'ladi. Chuqur quduqlar kavlangan va qatlamlar orasidagi suv birinch paydo bo'lgan joyda to'xtab qolmay yuqoriga ko'tariladi. Bosim kuchi katta bo'sa ular yer yuzasiga otilib chiqadi va buloq hosil qiladi. 1940-1950-yillarda mahallamizda shunday buloq suvlari mavjud bo'lgan, lekin hozirgi paytda bunday buloqlar ko'milib ketgan. Mahallamizda hozirgi paytda buloq suvlarga ehtiyoj yo'q.

Bekobod — Toshkent viloyatidagi shahar (1954-yildan). Toshkentdan 189 km janubda, Dalvarzin cho'lining janubiy-sharqida. Tojikiston Respublikasi chegarasi yaqinida. Temir yo'l stansiyasi. Sirdaryoning har ikkala sohilida, shimoliy-sharqiy va janubiy-sharqidan tog' tizmalari bilan o'ralgan. Iqlimi keskin kontinental. Iyulning o'rtacha temperaturasi 28 — 30°, yanvarniki —2, —3°. Yiliga 300 mm dan ziyod yog'in tushadi. Aholisi 85,4 ming kishi (2000), asosan o'zbeklar; shuningdek rus, tatar, koreys, qozoq, tojik va boshqalar ham yashaydi. Bekobod yaqinidan Dalvarzin va Do'stlik kanallari boshlanadi.

Bekobod tumani - Toshkent viloyatidagi tuman. 1926-yil 29-sentyabirda tashkil etilgan (1962-yil 24-dekabrda Sirdaryo viloyati Yangiyer tumaniga qo'shib yuborilgan, 1963-yil 17-aprelda qayta tuzilgan). Shimolda Toshkent viloyatining Buka tumani, g'arbda Sirdaryo viloyati, sharq va janubda Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh. Maydoni 0,76 ming km².

Aholisi 127,7 ming kishi (2000). Bekobod tumanida 1 shaharcha (Zafar) va 12 qishloq kengashi (Bahoriston, Bekobod, Guliston, Dalvarzin, Jumabozor, Madaniyat, Mehnatobod, Oxunboboyev, Pushkin, Chanoq, Yangihayot, Qiyot) bor. Markazi—Zafar shaharchasi.

„Savrak” maxalasi Toshkent viloyatidagi Bekobod tumanida joylashgan. „Savrak” mahallasining umumiy yer maydoni 1950 gektar. Aholisining soni 2500 kishi „Dalvarzin” choʻl zoʻnasining gʻarbiy qismida joylashgan qadimda bu yerlarda „Sirdaryo” oqib oʻtgan boʻlib bir nechta qoldiq koʻllar ham mavjud.

1.2. Tabiati va iqlimi

Tuman hududi Dalvarzin choʻli va qisman Mirzachoʻlda joylashgan. Eng sharqida er yuzasi bir oz oʻnqir. Tumanning adir qismida jar koʻp. Tuman hududi Sirdaryo tomon qiya. Iqlimi keskin kontinental. Yanvarning oʻrtacha temperaturasi —2,5°, iyulniki 28,5°. Yiliga 227 mm yogʻin tushadi. Vegetatsiya davri 220 kun. Tumanning janubida shamol koʻp boʻladi (q. *Bekobod shamoli*). Janubiy-sharqdan shimoliy-sharqqa tomon Sirdaryo oqib oʻtadi. Sirdaryo sohilida qoldiq koʻllar (Qolgansir, Katta Qolgansir, Yangikoʻl, Haybatkoʻl, Qozon, Shoʻrkoʻl) bor. Dalvarzin (oʻng va soʻl tarmoqlari bilan), Jivali, Oʻrtoqli, Doʻstlik kanallari va Xasyoz arigʻi oqib oʻtadi. Tuprogʻi oʻtloqi va oʻtloqi-botqoq, oqish boʻz tuproq. Botqoq, shoʻr bosgan va eroziyaga uchragan erlar ham bor. Bekobod tumanida miya, yantoq, qamish, qoʻgʻa, yulgʻun, qiyoq kabi oʻsimliklar oʻsadi. Chiyaboʻri, toʻqay mushugi, boʻrsiq, qoʻshoyoq, koʻrsichqon, kaltakesak va ilonlar, qushlardan oʻrdak, loyxoʻrak, qirgʻovul, soʻfitoʻrgʻay, chumchuq va boshqalar yashaydi. Aholisi, asosan oʻzbeklar, shuningdek tatar, tojik va boshqa millat vakillari ham yashaydi. 1 km² ga oʻrtacha 160 kishi toʻgʻri keladi. Shaharliklar 8,1 ming kishi, qishloq aholisi 119,6 ming kishi.

Bekobod shamoli — Turkiston oʻlkasidagi kuchli shamollar. Fargʻona vodiysining gʻarb tomonidagi (eni 940 km, uzunligi 70 — 75 km li) Fargʻona yoʻlagi (Xoʻjand yoʻlagi) orqali esadi. Vodiydan Sirdaryo viloyati tomon esadigan sharqiy va janubiy-sharqiy shamol Bekobod shamoli yoki «Xovos shamoli», Fargʻona vodiysi tomon esadigan shamol esa «Qoʻqon shamoli» deyiladi. Fargʻona

vodiysi shimimoliy-sharq va janubdan baland 3000 — 5000 m tog'lar bilan o'ralgani uchun vodiyni havosi boshqa joylarnikidan farq qiladi. Shimoldan keladigan arktika sovuq havo oqimi Sirdaryo viloyatidagi Dalvarzin cho'li hududlariga kelganda past bosimli (970 mb) iliq havo bilan to'qnashadi. Bu vaqtda Farg'ona vodiysidagi baland bosimli (985 mb) sovuq havo g'arbga yo'naladi va Farg'ona yo'lidan qisilib chiqib, Xovos tomon katta kuch bilan esadi. Arktikadan kelgan sovuq havo Farg'ona vodiysiga kirib borganda Qo'qon shamoli hosil bo'ladi. Yozda vodiydagi issiq havo yuqoriga ko'tariladi, uning o'rniga Sirdaryo viloyati va Dalvarzin cho'li hududlaridagi havo yo'lak orqali vodiyni ichkarisiga kirib boradi. Bir yilda o'rtacha 52 kun shunday kuchli shamol esadi, ko'pincha noyabrda boshlanib martda tugaydi. Shamolning tezligi 15 — 20 m/sek, ba'zan 45 m/sek. Bekobod shamoli 2 kundan 5 kungacha davom etadi va qishloq xo'jaligiga katta zarar yetkazadi. Bekobod shamoli ariq va kanallarni qumga ko'mib, avtomashina, vagon, daraxtlarni yiqitgan, telefon va telegraf ustunlarini ag'darib tashlagan paytlar ham bo'lgan. Shamol kuchli esganda chang-to'zon ko'tariladi. Imoratlar ustidagi shifer va tunukalar ko'chib ketadi, deraza oynalari sinadi. Bekobod shamolidan Sirdaryo viloyati hamda Farg'ona vodiysi — Qo'qon atrofidagi ekinlar zarar ko'radi. Ayniqsa bahorda g'o'zalarni nobud qiladi. Tuproqning unumdor ustki qismini shamol olib ketishidan yerlar yaxshi unum bermaydigan bo'lib qoladi. Bekobod shamoli kuchini kamaytirish uchun dalalar 100 — 120 m enlikda kartalarga bo'linadi, keyin 5 — 10 m joy qoldirib ihota daraxtlari ekiladi. Daraxtlar shamolning kuchini kesadi, tuproq namining bug'lanib ketishini va o'simliklar orqali suvning bug'lanishini kamaytiradi, yerga yaqin qatlamda havoning nisbiy namligini oshiradi.

1.3. Yo'llari

Tumanning janubidan Farg'ona vodiysiga boradigan temir yo'li, Toshkent—Bo'ka—Bekobod avtomobil yo'li o'tgan. 1999-2000-o'quv yilida 62 umumiy ta'lim maktabida 31,5 ming o'quvchi ta'lim oldi. 50 ommaviy kutubxona, 18 klub, 10 kinoqurilma, 26 madaniyat uyi, 435 o'rinli 3 kasalxona va dispanser, 27 tibbiyot

punkti bo'lib, ularda 191 vrach, 1201 o'rta ma'lumotli tibbiy xodim ishlaydi. 1931-yildan «Bekobod ovozi» tuman gazetasi chiqadi.

1.4.Mavjud muammolari

Artizandan olingan suv ta'minoti tarmoqlarining tartibga solinmaganligi, eski tarmoqlarning qayta tamirdan chiqarilmaganligi, loyixasiz suv tarmoqlarining yotqizdirilishi. Axoli o'rtasida ichimlik suvi isrofgarchiligiga yo'l qo'yilishi (sug'orish uchun ishlatilishi). Yangi xo'jaliklar uchun qo'shimcha sug'orish tarmoqlari tortilmaganligi.

II-bob. Suv iste'moli xisobi

II-bob. Suv iste'moli xisobi

2.1 Xo'jalik bosh plani

Toshkent viloyati Bekobod tumani Savrak qishlogining axoli soni 2500 kishini tashkil qilib, axolisini asosan o'zbek, tojik va qozoq millatlari tashkil qiladi. Turar joy binolari asosan bir qavatli uylardan iborat.

Madaniy-ma'ishiy binolar ikki qavatli va maktab, boshqarmalar, magazine, bog'cha va korxonalaridan iborat.

Barcha binolar elektr, telefon, gaz tarmoqlari bilan ta'minlangan bo'lib, axoli ushbu xizmatlardan to'liq foydalanmoqda.

2.2 Suv bilan ta'minlangan ob'yektlar

Malakaviy bitiruv ishda suv ta'minoti ob'ektlari va asosiy suv iste'molchilari quydagilarni tashkil etadi.

1. Kommunal-maishiy soxa bo'yicha

1. Aholi

a) Shahsiy qoramol

b) Chorva fermasi

c) Traktor parki

d) Remont ustaxonasi

e) Sanoat korxonasi

Bulardan tashqari madaniy-maishiy, sog'liqni saqlash va xo'jalikni ma'muriy binolari asosiy suv ta'minoti ob'ektlari tarkibiga kiradi.

2.3 Suv iste'moli me'yori

Suv ta'minoti tizimi tanlashda birinchi navbatda suv iste'moli xisobini bajarish lozim. Suv iste'molini aniqlash uchun suv iste'moli me'yorini bilish kerak.

Suv iste'moli me'yori – deb bir iste'molchining bir sutka davomida iste'mol qiladigan suv miqdoriga aytiladi. Bir kishi uchun suv iste'moli me'yori binolarning obodonlik darajasiga qarab QMvaQ2.04.02-97 dagi (Suv ta'minoti tashqi tarmoqlar va inshootlar) dagi 1-jadvaldan qabul qilinadi.

Turar joy qurilish tumanlarini obodonlashtirish darajasi	Axoli yashash joylarida 1 kishi uchun quyicha bir kecha kunduz (yiliga) solishtirib xo'jalik ichimlik suv iste'moli(litr/sut)
<p>Ichki suv quvur va oqova bilan jixozlangan binolarni qurish.</p> <p>1. Ichki vodoprovod, kanalizatsiya bilan jixozlangan, markazlashgan issiq suv bilan vannali uylar,</p> <p>2. Xuddi shunday maxalliy isitish moslamasi bilan jixozlangan uylar uchun,</p> <p>3. Ko'chada o'rnatilgan suv tarmoqlari uchun,</p> <p>4. Ichki vodoprovod, kanalizatsiya bilan jixozlangan, markazlashgan issiq suv bilan vannasiz uylar uchun.</p>	<p>230-290</p> <p>150-200</p> <p>40-50</p> <p>95-125</p>

$$N_{xis} = N_{o'rt} \cdot K_{sut \text{ not}} = 95 \cdot 1,2 = 115 \text{ l/sutka}$$

Bu yerda; K_{sut} -sutkali notekislik koefisenti bo`lib, axolini turmush tarzi, sanoati korxonalarining ishlash rejimi, binolarning obodonchilik sharoiti va suv iste`molining xafta kunlari xamda yil fasllari davomida uzgarishini xisobga oladi.

$$K_{sut} = 1,1-1,3$$

Transport remont va xayvonlar uchun suv iste`moli me'eri VSN 33-2-2 dan olinadi.

Transport remonti.

Joriy remont-600-700 l/sut

Shartli remont -1200-1300 l/sut

Transport vositalarini yuvish

2-jadval

Transport vositalari turi	Suv iste'moli me'yori l/sut	
	Qo'lda	Mexanik
Avtomobillar	500	900
Traktor kombaynlar	350	500

Chorva xayvonlari uchun suv istemoli me'eri quydagicha.

Sogin sigirlar-100 l/sut

Buzoq-20 l/sut

quy va echki-10l/sut

Tovuq-1 l/sut

Urdak-2 l/sut

Kucha va kukalamzorlarga suv sepish me'eri Q.M vaQ 2.04.02-97 dan olinadi. Kucha yulaklarga suv sepish 0,3-0,5 l/m². Gulzor va kukalamzorlarga suv sepish 4-7l/m². Eslatma. Agarda suv sepiladigan maydonlar tug`risidagi ma'lumot yetarli bo`lmasa, u xolda suv sepish me'erini xar bir kishi uchun 50-60 l/sut deb qabul qilamiz. Qishloqda irrigasiya tarmoqlari yaxshi rivojlanganligi uchun kucha va kukalamzorlarni ariqlardan sug`oriladi.

2.4 Suv iste`moli hisobi

Xar bir iste`molchi uchun suv iste`moli miqdori quyidagi ifoda orqali xisoblanadi.

$$Q_{sut}=N_{xis} \cdot P =165 \cdot 2500=287,5 \text{ m}^3/\text{sut}$$

Bu yerda: P-iste`molchilar soni

N_{xis} - suv iste`moli me'yori

Suv iste`moli xisobini jadval usulida olib boramiz.

Sutkalik suv iste'molini xisoblash jadvali

3-jadval

№	Istemolchilar nomi	O'lchov birligi	Soni	Suv iste'moli	Sutkalik suv iste'moli	
					Litr/sut	m ³ /sut
1	Axoli	Kishi	2500	115	887500	287.5
2	Shaxsiy mol	Dona	2520	80	20160	201,6
	a)qoramol					
	b)qo'y					
	g)parranda		5040	1	5040	5,04
3	Sanoat korxonasi (paxta tozalash va tegirmon)	Dona	255			255
4	Traktor parki	Dona	34	400	13.600	13.6
5	Remont ustaxonasi	Dona	11	700	7700	7.7
6	Ko'klamzorl ashtirish	Kishi	2500	50	125000	125
Jami suv iste'moli						929.04


Sutkali suv sarfining soatlar bo'yicha m³ va foizlarda taqsimlanish jadvali

4- jadval

№	ISTEMOL CHILAR NOMI	Suv sarfi m ³	Sutka soatlari bo'yicha																							
		%	0-1	1-2	2-3	3-4	4-5	5-6	6-7	7-8	8-9	9-10	10-11	11-12	12-13	13-14	14-15	15-16	16-17	17-18	18-19	19-20	20-21	21-22	22-23	23-24
1	Aholi	527.74	3.96	3.96	5.28	5.28	15.83	29.02	29.02	18.47	18.47	31.66	44.86	44.86	31.66	26.39	26.39	18.47	18.47	31.66	31.66	31.66	31.66	15.83	10.55	5.58
		100	0,75	0,75	1	1	3	5,5	5,5	5,5	3,5	3,5	6	8,5	8,5	6	5	5	3,5	3,5	6	6	6	6	3	2
2	Sanoat korxonasi (paxta tozalash va tegirmon)	255							15.94	15.94	15.94	15.94	15.94	15.94	15.94	15.94	15.94	15.94	15.94	15.94	15.94	15.94	15.94	15.94	15.94	15.94
		100							6,25	6,25	6,25	6,25	6,25	6,25	6,25	6,25	6,25	6,25	6,25	6,25	6,25	6,25	6,25	6,25	6,25	6,25
4	Traktor parki	13.6							1.36	1.36	0.14	0.14	0.14	0.14	1.36	1.36	0.14	0.14	0.14	0.14	1.36	2.72	2.72			
		100							10	10	1	1	1	1	10	10	1	1	1	1	12	20	20			
5	Remont ustaxona	7.7									0.77	0.77	0.77	0.77	0.77	0.77	0.77	0.77	0.77	0.77	0.77	0.77				
		100									10	10	10	10	10	10	10	10	10	10	10	10				
6	Ko'klamzor lashtirish	125						31.25	31.25														31.25	31.25		
		100						25	25														25	25		
7	Jami soatlar bo'yicha sarflari	929.04	3.96	3.96	5.28	5.28	15.83	60.27	61.63	46.32	34.55	35.32	48.51	61.71	62.93	49.73	43.24	43.24	35.32	35.32	50	50.32	81.57	63.02	26.49	5.28
		100	0.43	0.43	0.57	0.57	1.70	6.49	6.63	4.99	3.72	3.80	5.22	6.64	6.77	5.35	4.65	4.65	3.80	3.80	5.38	5.42	8.78	6.78	2.85	0.56
8	Jami o'sib boorish tartibi	929.04	3.96	7.92	13.2	18.48	34.31	94.58	156.21	202.53	237.08	272.4	320.91	383.62	445.55	495.28	538.52	581.76	617.08	652.4	702.4	752.74	834.31	897.33	923.82	929.04
		100	0.43	0.86	1.43	2	3.7	10.19	16.82	21.81	25.53	29.33	34.55	4.19	47.96	53.31	57.97	62.61	66.41	70.21	75.59	81.01	89.79	96.57	99.42	100

Yuqoridagi jadvaldan foydalanib pog'onaligrafiik tuziladi.

Suv iste'molini pog'onali grafiqi.



Maksimal soatdagi suv sarfi

5-jadval

№	Iste'molchilar	Suv istemoli sarfi	
		m ³ /soat	l/sek
1	Axoli	31.66	8.79
2	Sanoat	15.94	4.43
3	Traktor parki	2.72	0.75
4	Remont ustaxonasi	—	—
5	Ko'klamzorlashtirish	31.25	8.68
	Jami	81.57	22.65

Xisobiy suv sarfini aniqlashning 2-usuli formula bo'yicha amalga oshiriladi.

6-jadval

Axoli soni	2.5	4.0	6.0	10.0	1mm
β_{max}	1.6	1.5	1.4	1.3	1.0

2.5 O't o'chirishda suv ta'minoti me'yori

Ushbu xisobda axoli punktida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inni o'chirish usuli va yong'inni o'chirishda ketadigan suv miqdori aniqlanadi. QM va Q 2.04.02-97 da yong'inni vodoprovod tarmog'ida o'rnatilgan maxsus gidrantlar yordamida o'chirish tavsiya etiladi.

Xisobda past bosimli o't o'chirish bodoprovod sistemasi qabul qilinadi. O't o'chirish uchun suv manbasining o'zidan yoki bu usul taxnik-iqtisodiy jixatdan maqsadga muvofiq bo'lmasa toza suv rezervuaridan olinadi.

$$W_{or\ och} = Q_{ot\ och} \cdot n \cdot T \cdot 3,6 = 15 \cdot 1 \cdot 3 \cdot 3,6 = 162m^3$$

Bu yerda: $Q_{ot\ och}$ - o't o'chirish uchun zarur bo'lgan suv me'yori.

$$Q_{ot\ och} = Q_{ichki} + Q_{tash} = 5 + 10 = 15l/s$$

Bu yerda: Q_{ichki} -ichkaridan o't o'chirish me'yori, binolarning sig'imiga bog'liq xolda SNIPII-30-76 dan olinadi.

Q_{tash} -tashqaridan o't o'chirish me'yori bo'lib, QM va Q 2.04.02-97 dan axoli soni va binolarning qavatiga qarab, xamda tashqaridan yong'in o'chirish 6-jadvalning ilovasiga asoslanib 10 l/sek olamiz.

n-bir vaqtning o'zida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlar soni. $n=1$

T-yong'in o'chirish uchun ketadigan vaqt. $T=3$ soat.

O't o'chirish uchun suv motopompa avtonasos va avtosisterna yordamida uzatiladi. Shaxsiy uylar bo'lgan qishloqlarda suv xavzalarining foydali yuzasi 50-150 m³ bo'lishi kerak. Suv xovuzi uchun quyidagi omillar bo'lishi shart.

- 1) Suvni tortib oluvchi va uzatuvchi moslamalar

- 2) Grunt suvlari va grunt suvlarini sathi
- 3) Hovuzni suv bilan to'ldirishning usuli
- 4) O't o'chirish mashinalarining bemaolol kira olishi
- 5) Ob'yektga hovuzning yaqinligi o't o'chirish uchun zarur bo'lgan suv sarfini quyidagicha aniqlaymiz.

2.6 Suv iste'moli tartibi

Axoli punkti va ishlab chiqarish soxasida suv iste'moli sutka soatlari bo'yicha notekis taqsimlanganligi sababli biz vodoprovod tarmog'ini loixalashtirayotganda suv iste'molining sutka soatlari bo'yicha taqsimlanishini bilishimiz kerak.

3-jadval qiymatlari va axoli punktidagi suv iste'molining sutka soatlari bo'yicha taqsimlanish jadvaliga asoslanib suv rezervuar xamda pog'onali grafik va 4-jadvalga asoslanib, maksimal suv iste'moli soati aniqlanadi. Suv iste'molina foizda ko'radigan bo'lsak kechqurun soat 1dan 4gacha 1%ga xam yetmaydi. Soat ertalabki 5dan boshlab suv iste'moli orta boradi va sutkaning 11-13 soatlarida bu ko'rsatkich o'zining maksimal darajasiga erishadi.

III-bob.Suv ta'minoti sxemalari

III-bob. Suv ta'minoti sxemalari

3.1. Suv ta'minoti manbasi

Savrak qishlogi uchun suv ta'minoti manbasi sifatida yer osti suvlaridan foydalanamiz. Yer osti suvlari chuqurligi 150 metr bo'lgan quvurli quduqdan olinadi. Markazdan qochma vertical nasos yordamida. Yer osti suvlari sifati O'z Dts 950:2011 talablariga javob beradi. 7-jadvalda manba suvlari sifati GOST bilan taqqoslangan.

7-jadval


№	Ko'rsatkichlar nomi	O'zDst 950:2011 bo'yicha	Manba bo'yicha
1	Quruq qoldiq (mg/l)	1000	496
2	Umumiy qattiqligi	7	4.87
3	Ph ko'rsatkichi	6-9	-
4	Xlorid (cl)	250	28.0
5	Sul'fidlar (SO ₄)	400	132
6	Magniy (Mg)		18
7	Temir (Fe)	0.3	-
8	Marganest (Mr)	0.1	-
9	Kal'siy (Ca)		68.0

3.2 Suv ta'minotining I-varianti

Yer osti suvlarini olish uchun chuqurligi 150 m quvurli quduq parmalanadi. Quduqlar vertikal quvurlar bilan jixozlangan. 1ta quduq ishchi 1 ta ququq rezerv. Quvurli quduq va toza suv rezervuarini xisobi IV-bobda xisoblanadi.

Toza suv rezervuarida suv ikkinchi ko'tarish nasos stansiyasi yordamida vodoprovod tarmog'iga beriladi. Nasos stansiya 2 ta ishchi va 1 ta rezerv, 1 ta yong'inni o'chirish nasosi va bakteridsit qurilma bilan jixozlangan.

1-sxema



1-quvurli quduq

2-toza suv rezervuari

3-II-ko'tarish nasos stansiyasi

Vodoprovod inshootlarining qurilish inshootlari qiymati(1-sxema).

8-jadval


№	Inshootlar nomi	O'lchov birligi	Soni	Narxi so'mda	
				Solishtirma	Umumiy
1	3 ta quvurli quduq H=150 m Q=929.04m ³ /sut	dona	3	12500	37500
2	Toza suv rezervuari W ₁ =100m ³ , W ₂ =100m ³	dona	2	5910	11820
3	4 ta gorizonta nasos va bakteridsid qurilma bilan jixozlangan NSII	dona	1	7720·1.4	10808
					60128

3.3. Suv ta'minotining II-varianti

Inshoatlar xisobi 4-bobda keltirilgan.

Vodoprovod inshootlarining qurilish inshootlari qiymati(2-sxema).

2-sxema



9-jadval

№	Inshootlar nomi	O'lchov birligi	Soni	Narxi (so'm)	
				Solishtirma	Umumiy
1	2 ta quvurli quduq H=150 m Q=929.04	Dona	2	12500	25000
2	Toza suv rezervuari W ₁ =200 m ³ , W ₂ =300 m ³	dona	1	9030	9030
			1	10570	10570
3	4 ta gorizonta nasos va bakteridsid qurilma bilan jixozlangan NSII	dona	1.4	7720*1.4	10808
					55408

3.4. Variantlarni texnik iqtisodiy taqqoslash

Yuqoridagi ko'rib chiqqan I va II sxemadan iborat ikki variantni texnik iqtisodiy jihatdan taqqoslaymiz. Variantlarning eng arzonini tanlab loixalash uchun qabul qilamiz.

Variantlarni taqqoslash

10-jadval

№	variantlar	I-variant	II-variant
	ko'rsatkichlar		
	Kapital mablag'lar(so'm)	60128	55408

Xulosa: Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki I-sxemadagi variantimiz texnik-iqtisodiy jihatdan arzon chiqdi. Loixamiz uchun I-sxemani qabul qilamiz.

3.5 Qabul qilingan suv ta'minoti sxemasi va inshootlar tarkibi.

Texnik – iqtisodiy jihatdan taqqoslash natijasida suv ta'minotining II-sxemasi qabul qilindi. Bu sxemada suv Toshkent viloyati Bekobod tumani Oybek fermerlar uyushmasi Savrak qishlogi yer osti suvlaridan foydalanilgan xolda quvurli quduq vositasida olinadi.

Ushbu sxema quyidagi inshootlar tarkibidan iborat:

- 1) Chuqurligi $H=150$ metr. $Q=1003.123$ Nasos bilan jixozlangan.
- 2) Suv tashish quvuri $l=2.5$ km, $d=200$ mm
- 3) Toza suv rezervuari $W_1=200m^3$, $W_2=300m^3$
- 4) 4 ta nasos va bakteridsid qurilma bilan jixozlangan II – ko'tarish nasos stansiyasi
- 5) Ushbu inshootlar joylashgan sanitariya nazorat zonasi $6200m^2$ yoki 0.82 ga maydondan iborat

IV-bob Vodoprovod inshootlari

IV-bob Vodoprovod inshootlari

4.1. Suv olish va tozalash inshootlari

Quvurli quduq xisobi.

Quvurli quduq fil'trini xisoblash.

1.Fil'trni turi suvli qatlam jinsiga bog'liq xolda QMQ 2.04.02-97 dan maxsus jadvaldan tanlanadi. Fil'tr turi: qalinligi 4 metr bo'lgan yemirilishga qarshi qoplamali dumaloq teshikli fil'tr.

2.Fil'trni talab maydoni:

$$F_{\text{talab}} = Q_{\text{sut}} / V_{\text{kir}} = 929.04 / 218.62 = 4.37 \text{ m}^2$$

$K_f = 30$, quyi zarrali shag'al uchun.

3.Fil'tr uzunligi:

$r = 0.25$ -teshikli fil'tr uchun

$$L_{\text{to'la}} = l_{\text{bosh}} + l_f + l_{\text{tin}} = 1 + 27.83 + 5 = 33.83 \text{ m}$$

Tanlashimiz mumkin bo'lgan diametrlar:

$d = 100\text{sm}, 150\text{sm}, 200\text{sm}, 250\text{sm}, 300\text{sm}, 350\text{sm}$.

Metrdagi olgan xolda: $d = 0.1\text{m}, 0.15\text{m}, 0.2\text{m}, 0.25\text{m}, 0.3\text{m}, 0.35\text{m}$.

Yer osti suvlarini olish inshooti xisobi

1) Statik satx quyidagicha olinadi:

$$\text{ст.с} = \text{ер.с} \pm h = 274 - 39 = 235 \text{ м}$$

2) Dinamik satx quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{дин.с} = \text{ст.с} - S = 235 - 7,16 = 227,84 \text{ м}$$

$$S = \frac{Q_{\text{HCl}}}{Q_{\text{сол}}} = \frac{10,75}{1,5} = 7,16 \text{ м}$$

$$\text{ТСР} = \text{ер.с} \pm 0,5 = 274 + 0,5 = 274,5 \text{ м}$$









$$\text{Нтула} = \text{ТСР} - \text{дин.с} + 3 = 274,5 - 227,84 + 3 = 49,66 \text{ м}$$

Dinamik satxni xisobga olgan xolda suv ta'minoti sxemasi 3 xil bo'lib:

- dinamik satx yer satxidan 10 metrdan katta bo'lgan chuqurlikda
- dinamik satx yer satxidan 10 metrdan kam bo'lgan chuqurlikda
- statik va dinamik satxlar yerdan tepada joylashganda

Bizning variantda dinamik satx yerdan 10 metrdan katta chuqurlikda bo'lgani uchun 1- sxemani tanlaymiz.

Quduqning ko'ndalang qirgimi

Mashtab	Absolyut satx	Qatlam nomeri	Qatlam qaliniigi	Qatlam chuqurligi	Qatlam nomi	Shartli belgisi	Quduq qirgimi	Quvur uzunligi	Suv satxi yerga nisbatan	Absolyut suv satxi
0										
10	258.9	1	15	15	soz tuproq			$\frac{l=10}{d=377}$		
20										
30										
40	233.9	2	25	40	qumli shag'al			$\frac{l=50.4}{d=324}$	$\frac{38.9}{\Delta \text{sta s}}$ $\frac{46.06}{\Delta \text{din s}}$	
50										
60										
70										
80										
90	183.9	3	50	90	soz tuproq			$\frac{l=60}{d=277}$		
100										
110										
120										
130										
140										
150	183.9	3	50	90	mayda donali qum			$\frac{l=33.88}{d=200}$		
160										

Bakteridsit qurilma xisobi.

Bakteridsit oqimi xisobi quyidagi fo'rmula yordamida xisoblanadi:

$$F_0 = \frac{q_{coam} \cdot \alpha \cdot K \cdot \lg \frac{P}{P_0}}{15634 \cdot \eta_p \cdot \eta_0} = \frac{81,57 \cdot 0,1 \cdot 2500 \cdot \lg \frac{1}{1000}}{15634 \cdot 0,9 \cdot 0,9} = \frac{81,57 \cdot 0,1 \cdot 2500 \cdot 3}{1266354} = 48,31$$

Bu yerda: q_{soat} -tozalash stansiyasi quvvati ($m^3/soat$)

P -suvning bakteridsit nur yutish koeffitsenti

k -nurlanayotgan bakteriyalarning qarshilik koeffitsenti. $K=2500$

n -bakteridsit nur oqimidan foydalanish koeffitsenti. $n=0.9-0.98$.

n_0 - bakteridsit moslamaning foydali ish koeffitsenti. $n_0=0.9-0.98$.

Lampalar soni.

$$n = \frac{F_0}{F} = \frac{48,31}{35} \approx 2$$

demak bizga 1ta lampa kerak bo'ladi

4.2. Sanitar nazorat zonasining xisobi

QMQ 2,04,02-97 ga asosan sanitar nazorat zonasi xamma xujalik ichimlik suvlarni vodoprovod loyixalarida ularning sant epidemologik xolatini saqlash uchun bunyod etiladi.

Sanitar nazorat zonasi suv ta'minoti manbasi, vodoprovod inshootlari maydoni va suv tashish quvurlarini muxofaza qilish zonalarini uz ichiga oladi. Sanitar nazorat zonasini tuzishda

-suv ta'minoti manbasi;

- suv olish inshootlari va vodoprovod inshootlari maydoni.

- suv tashish quvurlarini uchun aloxida maydon kuzda tutilib, umumiy maydon aniqlanadi.


QMQ 20402-97 talabiga asosan inshootimiz buloq suv ximoyalanmagani sababli nazorat zonasi inshootdan 50m masofada olinadi.

Toza suv rezervuaridan yoki toza suv rezervuarining devoridan sanitar nazorat zonasining chegarasigacha 30m masofada olamiz.

Sanitar nazorat zonasida quydagi qoidalar rioya qilinishi shart.

1. Suv olish manbasi baland devor bilan uralgan bo`lishi kerak va faqat maxsus ruxsatnoma bilan kirish mumkin.
2. Suv olish manbasi maydonida qishloq xo`jalik ekinlarini yetishtirish yerga ishlov berish, yerga xar xil kimyoviy tabiiy ug`itlar solish qatiyan man etiladi.
3. Suv olish manbasi maydonida faqat kukalamzorlashtirish va daraxt ekish mumkin.
4. Suv olish manbasi oldida va maydonida xar xil qurilish ishlari, madaniy maishiy bo`lmasligi kerak.

Balandlik sxema



4.2. Toza suv rezervuari xisobi

Toza suv rezervuarini moslashtiruvchi xajmini aniqlash jadvali.

11-jadval

Soatlar	Suvning NsI tomonidan berilishi	Suvning NsII tomonidan olinishi	Suvning rezervuardan olinishi	Suvning rezervyarga tushishi	Suv sarfining algebraic yig'indisi	Rezervuardagi suvning miqdori
1	2	3	4	5	6	7
0-1	4.17	0.43	+3.74		3.74	8.66
1-2	4.17	0.43	+3.74		7.48	12.4
2-3	4.17	0.57	+3.6		11.08	16
3-4	4.17	0.57	+3.6		14.68	19.6
4-5	4.17	1.70	+2.47		17.15	22.07
5-6	4.17	6.49		-2.32	14.83	19.75
6-7	4.17	6.63		-2.46	12.37	17.29
7-8	4.17	4.99		-0.82	11.55	16.47
8-9	4.17	3.73	+0.44		11.99	16.91
9-10	4.16	3.80	+0.36		12.35	17.27
10-11	4.16	5.22		-1.06	11.29	16.21
11-12	4.16	6.64		-2.48	8.81	13.73
12-13	4.16	6.77		-2.61	6.2	11.12
13-14	4.16	5.35		-1.19	5.01	9.93
14-15	4.16	4.65		-0.49	4.52	9.44
15-16	4.16	4.65		-0.49	4.03	8.95
16-17	4.16	3.80	+0.36		4.39	9.31
17-18	4.17	3.80	+0.37		4.76	9.68
18-19	4.17	5.38		-1.21	3.55	8.47
19-20	4.17	5.42		-1.25	2.3	7.22
20-21	4.17	8.78		-4.61	-2.31	2.61
21-22	4.17	6.78		-2.61	-4.92	0
22-23	4.17	2.85	+1.32		-3.6	1.32
23-24	4.17	0.57	+3.6		0	4.92

Toza suv rezervuari to'la xajmi:

$$W_{tola} = W_{mos} + W_{yong} = 20503 + 31287 = 51796m^3$$

W_{yon} -zilzila darajasiga bog'liq xolda aniqlanadi. Agar zilzila 7 balldan katta bo'lsa quyidagicha:

$$W_{yon} = (q_{xis} + q_{tash} + q_{ichki}) \cdot 3 \cdot 3,6 = (13,97 + 10 + 5) \cdot 3 \cdot 3,6 = 31287m^3$$

Toza suv rezervuarini moslashtiruvchi xajmini topish.

$$W_{mos} = \frac{n \cdot Q_{sut}}{100} = \frac{22,07 \cdot 929,04}{100} = 205,03m^3$$

Standart toza suv rezervuarlari ichidan mos xajmlisini tanlaymiz. $W_{to'la}=517.90m^3$ bo'lgani uchun bitta $200m^3$ va bitta $300m^3$ xajmli toza suv rezervuarlarini tanlaymiz:

12-jadval

W (m ³)	L (metr)	V (metr)	H (metr)
200	200	12	3.6
300	200	15	3.6

Inshoatdan chegara.


Toza suv rezervuari va ochiq bo'lgan tindirg'ichlar devoridan 30 metr dan kam bo'lmagan. Qolgan inshootlar devorlaridan II-ko'tarish nasos stansiyasidan, agar bo'lsa bosimli suv minorasidan kamida 30 metr bo'lishi kerak.

Bizning loyixa bo'yicha sanitar nazorat zo'nasi 7600 metr.kv ya'ni 0.80 gani tashkil etadi.

4.4 Vodoprovod tarmog'ini trassalash.

Vodoprovod tarmog'i ko'chalardan o'tkazilib, binolardan 3-4 metr uzoqlikda joylashtiriladi. Vodoprovod tarmog'i xalqasimon ko'rinishda bo'lib, aloxida joylashgan iste'molchilar uchun shoxchalar o'tkaziladi. Xisobiy tugunlar bo'laklar kesishgan joyda yoki bo'laklarni uzunligi 500-600 metrdan katta bo'lgan xolda qo'yiladi. Suv ta'minoti tizimini bosh inshootlar joylashgan territoriyani sanitariya nazorot zonasi tashkil qiladi.

Tugun va masofalar sxemasi




Tugunlardagi suv sarfini aniqlash jadvali.

13-jadval

Tugunlar	Bo'laklar		Solishtirma suv sarfi l/sek	Yo'ldosh suv sarfi l/sek	Tugundagi suv sarfi l/sek	Yirik iste'molchi		Umumiy tugundagi suv sarfi
	Belgisi	Uzunligi				Nomi	Suv sarfi	
1	1-2	550	17,47 / 7950 = 0,0022	1.21	1.60			1.60
	1-14	350		0.77				
	1-15	550		1.21				
2	2-1	550		1.21	1.21			1.21
	2-3	550		1.21				
3	3-2	550		1.21	1.17			1.17
	3-4	520		1.14				
4	4-3	520		1.14	1.17			1.17
	4-5	550		1.21				
5	5-4	550		1.21	1.08			1.08
	5-6	430		0.95				
6	6-5	430		0.95	1.13			1.13
	6-7	600		1.32				
7	7-6	600		1.32	1.76			1.76
	7-8	400		0.88				
	7-15	600	1.32					
8	8-7	400	0.88	0.93	S.K	4.43	6.11	
	8-9	450	0.99		T.P	0.75		
9	9-8	450	0.99	0.93			0.93	
	9-10	400	0.88					
10	10-9	400	0.88	1.1			1.1	
	10-11	600	1,32					
11	11-10	600	1.32	1.32			1.32	
	11-12	600	1.32					
12	12-11	600	1.32	1.1			1.1	
	12-13	400	0.88					
13	13-12	400	0.88	0.88			0.88	
	13-14	400	0.88					
14	14-13	400	0.88	0.83			0.83	
	14-1	350	0.77					
15	15-7	600	1.32	1.26			1.26	
	15-1	550	1.21					

Maksimal xojaligi uchun suv berish holati sxemasi



4.5. Vodoprovod tarmog'ining gidravlik xisobi.

Maximal xo'jalik xolati uchun gidravlik xisobni Lobochoy usulida bajaramiz. Vodoprovod tarmog'ida suv yo'nalishini aniqlab, bo'laklar bo'yicha yo'ldosh suv sarflarini tugunlaridagi suv sarfiga almashtirib gidravlik xisobni bajarish uchun sxema tayyorlanadi.

Tugun suv sarflari xisob sxemasiga kiritilgandan keyin suvni tarmoq bo'laklari bo'ylab taxminiy tarqatishni amalga oshiramiz. Bunda quyidagi asosiy shartlar bajarilishi zarur:


- 1) Asosiy suv oqimini bosh yo'nalish bo'yicha yo'naltirish kerak va parallel tomonlardagi quvurlar diametrlari taxminan o'zaro teng bo'lishi zarur.
- 2) Tugunga oqib kelayotgan suv sarflari yig'indisi tugundan olinayotgan va undan oqib kelayotgan suv sarflari yig'indisiga teng bo'lishi zarur.

Taxminiy suv sarflariga qarab quvurlar diametrlari tanlanadi. Diametrlar maxsus jadvaldan tanlanadi. Quvurlarning materialini xisobga olgan holda suv sarflari (l/s)

14-jadval

Quvur diametri	Quvur materiali		
	Po'lat	Cho'yan	Plastmass
80	5.2-7.3	-	1.4-2.4
100	7.3-10.6	4.0-6.6	2.4-4.0
125	10.6-15.1	6.6-10.6	4.0-6.4
150	15.1-19.8	10.6-17.8	6.4-12.0
175	19.8-26.5	-	-
200	26.5-42	17.8-32.3	12.0-28.3
250	42-65	32.3-51.8	28.3-45.3

Yong'in o'chirish va maksimal xojaligi uchun suv berish sxemasi



Xalqalar bo'yicha muozanat sharti suvni dastlabki tarqatishda bajarilmasligi mumkin. Shuning uchun xar bir xalqada tuzatma suv sarfi quyidagicha aniqlanadi.

Σ h-bosim isroflarini algebraik yig'indisi.

Tuzatma suv sarfining ishorasi + bo'lganda soat strelkasi bo'yicha suv beruvchi bo'laklarda suv sarfi ortiqcha bo'ladi. Manfiy (-) ishora bo'lsa teskarisi.

Ikki xalqani quyisidagi bo'laklarda tuzatma suv sarfi qo'shni xalqadan o'zini ishorasi bilan xisobga olinadi.

Quyi rezervuarli suv berish sxemasi uchun bir vaqtni o'zida maksimal xo'jalikka va yong'inni o'chirish uchun gidravlik xisob.

Yong'in o'chirish xolati tanlangan diametrni tekshirish uchun bajariladi. Xisoblangan xisobiy suv sarfi yong'in o'chirish suv sarfiga o'zgaradi.

Tugunlardagi suv sarflari 1- xolatdagidek bo'ladi, faqat yong'in o'chirish nuqtada (eng uzoq va eng baland) tugundagi suv sarfi yong'in o'chirish sarfiga oshadi. (15litr)

Xisob interatsiya usulida bajariladi. Lobochoy formulalari bilan foydalanilgan xolda.

Shu usulda bosim isrofi qiymati xam xisoblanadi.

A-solishtirma qarshilik quvur diametri va materialiga bog'liq xolda (sek/l²)

Tuzatma suv sarfi quyidagicha topiladi:

Plastmassa quvurlar uchun solishtirma qarshiliklar.

$$d=75\text{mm} \quad - \quad A=2390\text{E}-6$$

$$d=90\text{mm} \quad - \quad A=926.8\text{E}-6$$

$$d=110\text{mm} \quad - \quad A=323.9\text{E}-6$$

$$d=140\text{mm} \quad - \quad A=91.62\text{E}-6$$

$$d=160\text{mm} \quad - \quad A=45.91\text{E}-6$$

$$d=180\text{mm} \quad - \quad A=24.76\text{E}-6$$

Suv tashish quvurining gidravlik xisobi.

Yong'in o'chirish uchun:

Gidravlik xisob Lobochoy usulida kompyuterda xisoblanadi.

Xalqa	Bo'lak nomi	Uzunligi (metr)	Diametri(mm)	Suv sarfi	Solishtirma Qarshilik A	Suv sarfi Q(l/sek)	Bosim isrofi h (metr)	S
1	2	3	4	5	6	7	8	9
I	1 (1-2)	550	160	+9	45.91 e-6	7.48	1.41	0.022
	2 (2-3)	550	160	+7.79	45.91 e-6	6.26	0.99	0.027
	3 (3-4)	520	160	+6.62	45.91 e-6	5.09	0.62	0.054
	4 (4-5)	550	140	+5.45	91.62 e-6	3.93	0.77	0.053
	5 (5-6)	430	140	+4.37	91.62 e-6	2.84	0.31	0.187
	6 (6-7)	600	125	+3.24	366.7 e-6	1.72	0.29	0.148
	7 (7-15)	600	100	-0.74	311.7 e-6	-3.97	-1.57	0.148
	8 (15-1)	550	100	-2	311.7 e-6	-5.23	-2.50	0.161
						Q=-0.21	h=0.35	
II	1 (1-14)	350	160	-10.05	45.91 e-6	-8.36	-1.11	0.194
	2 (14-13)	400	160	-9.22	45.91 e-6	-7.52	-1.03	0.194
	3 (13-12)	400	160	-8.34	45.91 e-6	-6.64	-0.50	0.053
	4 (12-11)	600	160	-7.24	45.91 e-6	-5.54	-0.84	0.054
	5 (11-10)	600	140	-5.92	91.62 e-6	-4.22	-0.97	0.024
	6 (10-9)	400	140	-4.82	91.62 e-6	-3.12	-0.35	0.022
	7 (9-8)	450	125	-3.89	366.7 e-6	-2.2	-0.35	0.054
	8 (8-7)	400	100	+2.22	311.7 e-6	-3.92	1.02	0.161
	9 (7-15)	600	100	+0.74	311.7 e-6	3.96	1.57	0.148
	10 (15-1)	550	100	+2	311.7 e-6	5.22	2.50	0.148
						Q=-0.033	h=0.38	

Xalqa	Bo'lak nomi	Uzunligi (metr)	Diametri(mm)	Suv sarfi	Solishtirma Qarshilik A	Suv sarfi Q(l/sek)	Bosim isrofi h (metr)	S
1	2	3	4	5	6	7	8	9
I	1 (1-2)	550	160	+16	45.91 e-6	12,23	3,77	0.022
	2 (2-3)	550	160	+14,79	45.91 e-6	11,02	3,06	0.027
	3 (3-4)	520	160	+13,62	45.91 e-6	9,85	2,31	0.054
	4 (4-5)	550	140	+12,45	91.62 e-6	8,68	3,5	0.053
	5 (5-6)	430	140	+11,37	91.62 e-6	7,6	2,27	0.187
	6 (6-7)	600	125	+10,24	366.7 e-6	6,47	4,19	0.148
	7 (7-15)	600	100	-0,74	311.7 e-6	-6,66	-8,27	0.148
	8 (15-1)	550	100	-2	311.7 e-6	-7,92	-10,72	0.161
						Q=-0.094	h=0.43	
II	1 (1-14)	350	160	-18,05	45.91 e-6	-15,91	-4,06	0.194
	2 (14-13)	400	160	-17,22	45.91 e-6	-15,08	-4,17	0.194
	3 (13-12)	400	160	-16,34	45.91 e-6	-14,2	-3,70	0.053
	4 (12-11)	600	160	-15,24	45.91 e-6	-13,1	-4,72	0.054
	5 (11-10)	600	140	-13,92	91.62 e-6	-11,78	-7,62	0.024
	6 (10-9)	400	140	-12,82	91.62 e-6	-10,68	-4,17	0.022
	7 (9-8)	450	125	-11,89	366.7 e-6	-9,75	-7,12	0.054
	8 (8-7)	400	100	+9,22	311.7 e-6	11,36	16,10	0.161
	9 (7-15)	600	100	+0,74	311.7 e-6	6,65	8,27	0.148
	10 (15-1)	550	100	+2	311.7 e-6	7,91	10,72	0.148
						Q=-0.082	h=0.48	

Suv tashish quvurlarining gidravlik xisobi.

17-jadval

Nomi	Uzunligi (km)	Suv sarfi q (l/sek)	Diametri d (mm)	1km bosim isrofi 1000i	Bosim isrofi h (m)	Tezlik V (m/sek)
NC-1 maximal xo'jalik	0.3	22.65	200	4.56	1.37	0.7
NC-1 yong'in o'chirish	0.3	37.65	200	11.7	3.51	1.17


Erlin bosimni topish maxsus jadvalda olib boriladi. Erkin bosimni topish jadvaliga asoslanib tarmoq bo'yicha pe'zometrik satxlar ko'rsatilgan bo'ylama profillar chiziladi.

Erkin bosimni xisoblash

18-jadval

№	Yer satxi	Bo'laklar	Maksimal xo'jalik xolati				Yong'in o'chirish xolati			
			Bosim isrofi		P'ezometrik satx	Erkin bosim	Bosim isrofi		P'ezometrik satx	Erkin bosim
			xisob	Tuzatma			xisob	tuzatma		
						18.31			320,41	
NS	274.0				292.31		3,5	3,5		46,41
		NS-1	1.37	1.37		17.44			316,9	
1	273.5				290.94		3,77	3,77		43,4
		1-2	1.41	1.40		16.44			313,13	
2	273.1				289.54		3,06	3,06		40,03

		2-3	0.99	0.98		16.06			310,07	
3	272.5				288.56		2,31	2,31		37,57
		3-4	0.62	0.61		15.95			307,76	
4	272.0				287.95		3,8	3,8		35,76
		4-5	0.77	0.76		15.99			303,96	
5	271.2				287.19		3,27	3,27		32,56
		5-6	0.31	0.30		15.49			301,69	
6	271.4				286.89		4,19	4,19		30,29
		6-7	0.29	0.28		14.61			297,5	
7	272				286.61		16,10	16,10		25,5
		7-8	1.02	1.02		14.19			281,4	
8	271.4				285.59		7,1	7,1		10
		8-9	-0.35	-0.45		14			288,5	
9	271.7				286.04		4,17	4,17		16,8
		9-10	-0.35	-0.45		14.34			292,67	
10	272				286.49		7,6	7,6		20,67
		10-11	-0.97	-0.97		14.49			300,27	
11	272.9				287.46		4,72	4,72		27,37
		11-12	-0.84	-0.84		14.56			304,99	
12	273.6				288.3		3,70	3,70		31,39
		12-13	-0.5	-0.5		14.7			308,69	
13	274.1				288.8		4,15	4,15		34,59
		13-14	-1.03	-1.03		14.7			312,84	
14	273.8				289.83		4,06	4,06		43,4
		14-1	-1.11	-1.11		16.03			316,9	
1	273.5				290.94		3,51	3,51		46,41
		1-NS	-1.37	-1.37		17.44			320,41	
NS	274				292.31					



Bitiruv malakaviy ishi					
№	№	№	№	№	№
1	2	3	4	5	6
7	8	9	10	11	12
13	14	15	16	17	18
19	20	21	22	23	24
25	26	27	28	29	30
31	32	33	34	35	36
37	38	39	40	41	42
43	44	45	46	47	48
49	50	51	52	53	54
55	56	57	58	59	60
61	62	63	64	65	66
67	68	69	70	71	72
73	74	75	76	77	78
79	80	81	82	83	84
85	86	87	88	89	90
91	92	93	94	95	96
97	98	99	100		
Faqatgina "100"				"100"	
Faqatgina "100"				"100"	

4.4. Ikkinchi suvni ko'tarish nasos stansiyasining hisobi

Ikkinchi suvni ko'tarish nasos stansiyasi 4ta nasos va bakteridsit qurilma bilan jihozlangan. Ikkinchi suvni ko'tarish nasos stansiyasi suvni toza suv rezervuaridan tarmoqqa yetkazib beradi. Nasoslar soni va turi pog'onali suv iste'moli grafigiga va tarmog'ining gidravlik hisobiga asoslanib qabul qilinadi. Hisoblar natijasida 2 ta ishchi, 1 ta yong'in va 1ta rezerv nasoslar qabul qilinadi.

1-nasos

$$Q_1 = 0,6\% \cdot Q_{\text{sut}} / 100 = 0,6 \cdot 929,04 / 100 = 5,57 \text{ m}^3/\text{soat}$$

$$H_{\text{to'la}} = H_{\text{min}} + \sum h + 0.1 \sum h = 14 + 6,72 + 0.67 = 21,39 \text{ m}$$

Nasos markasi: **K20/30a**

$$Q_1 = 19.8 \text{ m}^3/\text{soat}$$

$$H = 25.8 \text{ m}$$

$$\eta = 64 \%$$

2-3 nasoslar

$$Q_{2,3} = 6,2\% \cdot Q_{\text{sut}} / 100 = 6,2 \cdot 929,04 / 100 = 57,6 \text{ m}^3/\text{soat}$$

$$H_{\text{to'la}} = H_{\text{min}} + \sum h + 0.1 \sum h = 14 + 6,72 + 0.67 = 21,39 \text{ m}$$

Nasoslar markasi: **K80-60-160**

$$Q_{2,3} = 50 \text{ m}^3/\text{soat}$$

$$H = 32 \text{ m}$$

$$\eta = 70 \%$$

4-nasos Yong'ini o'chirish uchun

$$Q_4 = 15 \text{ l/sek} \cdot 3.6 = 54 \text{ m}^3/\text{soat}$$

$$H_{\text{to'la}} = 10 + \sum h + 0.1 \sum h = 10 + 40 + 0,4 = 50,4 \text{ m}$$

Nasos markasi: **K-8-50-200**

$$Q = 50 \text{ m}^3/\text{soat}$$

$$H = 50 \text{ m}$$

$$\eta = 65 \%$$

4.6 Vodoprovod tarmoqlari va suv keltirish quvurlarining materiallari

Temir quvurlar- har hil diametr, devor qalinligi, temir material markasi bo'yicha ko'p asartimentda ishlab chiqiladi. Ular yuqori mustaxkam, unchalik og'ir bo'lmagan og'irlikda, plastiklik va ulanishning soddaligi uchun industrial montajlarda ishlatiladi. Temir quvurlarning ko'pchiligi karroziyaga chidamsizligi cho'yan hamda nometal quvurlariga qaraganda ish davri kam, ishlatish davri davomida agar zarur chora tadbirlar ko'rilmasa gidravlik qarshiligining oshishidadir.

Ko'pincha uglerodli temirdan ishlab chiqarilgan temir quvurlar ishlatiladi. Chunki ular arzon va unchalik kamyop emas. Kam uglerodli temir quvurlar ko'pincha harorat past bo'lgan hududlarda ishlatiladi. Bu temir quvurlar katta asartimentda ishlab chiqariladi, kafolat va harakteristika bo'yicha mexanik tuzilishi, kimyoviy tuzilishi va sinov bosimi har xil bo'ladi. Temir quvurlar karroziyadan saqlash uchun passiv va aktiv usullardan foydalaniladi. Aktiv usulda elektr himoya usuli qo'llaniladi. Passiv usulda esa quvurlarni tashqi va ichki muhitini izolyatsiyalash va maxsus modda bilan qoplanadi.

Po'lat quvurlar – GOST 10704-76 talabiga muvofiq 16 Atm gacha bosimga chidamli qilib, 1600 mm gacha diametr va devorining qalinligiga bog'liq xolda

- Rezba va mufta yordamida ($d=13.15-165\text{mm}$) bo'lganda.
- Bir chokli (svarka) payvandlash yordamida (165-800 mm) diametrda.
- Ko'p chokli payvandlash yordamida ($d=800\text{ mm}$ dan katta bo'lganda) ulanadi.

Po'lat quvurlarning eng katta kamchiligi tuproqning karrozion xususiyatiga chidamsizligidadir.

Afzalligi esa tashqi va ichki bosimga chidamliligidir.

Po'lat quvurlar asosan suv tashish xamda yuqori bosimli ichki vodoprovod tarmoqlarida qo'llaniladi.

Polimer –materiallardan ishlab chiqarilgan quvurlar ko'p jixatdan metal materiallardan ishlab chiqarilgan quvurlardan farq qiladi. Ular karroziyaga uchramaydi. Suv xarakatidagi ishqalanishda bosim isrofi metal quvurlarga

qaraganda 30 % kam. Bu quvurlarning ichki yuzasida qatlamlar umuman yuzaga kelmaydi. Plastmassa quvurlar GOST 18599-72 talabi bo'yicha xarorat 30 gradusdan katta bo'lgan sharoitlar uchun polietilendan 630 mm gacha diametrli va 2.5-10 atm bosimi xamda plastmassa 250 mm gacha dimetrli va 2.5 atm gacha bosimga mo'ljallab zavod sharoitida ishlab chiqiladi.

Bu quvurlar po'lat quvurlarga nisbatan 8-10 marta yengildir. Bunday quvurlar qo'llangan xollarda xam vodoprovod tugunlarini maxsus fason qismlardan foydalangan xolda jixozlanadi. Bu quvurlar kleylash yoki eritib payvandlash usulida yoki muftalar yordamida ulanadi. Plastmassa quvurlar qishloq joylarni tashqi suv ta'minoti va qishloq xo'jaligi guruxlash suv ta'minotida ishlatiladi. Bu quvurlarni agressiv tuproqlarda va seysmik rayonlarda ishlatish maqsadga muvofiqdir.

Material va quvur turini tanlashda tarmoq ishlash sharoiti, suv xarorati, tuproq agressivligi va quvurlarni ishlash muddatiga qarab tanlanadi.

**V bob. Aholi punkti joylashgan tumanda
suv resurslarini muhofaza qilish**

V bob. Aholi punkti joylashgan tumanda suv resurslarini muhofaza qilish

5.1 Atrof muhitni muhofaza qilish tadbirlarining maqsad va vazifalari.

Inson va tabiat orasidagi munosabatlar shu paytgacha 3 bosqichni bosib o'tdi. Ular:

1. Inson tabiatga butunlay bo'ysunib, uning mevalaridan bor darajada foydalangan

2. Inson tabiatni o'ziga bo'sundirib, uni boshqarishga harakat qila boshlagan.

3. Ikkinchi bosqichning yanada rivojlanishi.

Ushbu bosqichda inson va tabiat orasidagi munosabatlar keskinlashdi va ekologik munosabatlar vujudga kela boshladi. Insoniyat jamiyati rivojlanishining davom etish, uni tabiat resurslariga bo'lgan talabini qondirish uchun tabiat tizimiga mos keladigan xalq xo'jaligining rivojlanishini ta'minlash zarur. Shu sababdan tabiat va atrof muhitni muhofaza qilishning sababi va maqsadi:

Birinchiidan-muvozanatlashgan tabiiy tizimni saqlab qolish;

Ikkinchiidan-tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni tashkil qilish;

Uchinchiidan-inson hayot faoliyatini atrof muhiga ta'sirini yomonlashmasligini ta'minlash.

5.2 Oqova suvlarning obyektlarga ta'sir etish zonasida suv resurslarini himoya qilish tadbirlari

Oqova suvlarning toza suv obyektiga tushish joyigacha ma'lum masofada ushlab turiladi. Bu masofa suv obyektiga tushadigan oqova suvlarning kimyoviy tarkibiga qarab turli masofalarni tashkil etadi. Ushbu masofada suv resurslarini tarkibini saqlab qolish uchun ma'lum tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi.

Ushbu tadbirlar:

Birinchiidan-mavjud tozalash uslublarini qo'llab daryoga tushishdan oldin tozalash;

Ikkinchiidan-daryo suvlarini oqova suvlar bilan aralashishini o'sha hududda suniy qarshiliklar hosil qilish, aralashish masofasiga teng bo'lgan qismini qoplama bilan qoplash;

Uchinchidan-tashlanayotgan oqova suvlarni miqdorini toza suv hajmiga nisbatan 1/6 nisbatidan oshmasligi kerak;

To'rtinchidan-tushayotgan oqova suvlarning monitoringini tashkil qilish.

Davlatlararo daryolar-Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon daryosi, Orol dengizi va boshqa suvlardan foydalanish huquqi davlatlararo bitimlarda belgilanib beradi, ichimlik suvlari qatoriga kiritilgan yerosti chuchuk suvlaridan ishlab chiqarish, texnika maqsadlari uchun foydalanish ta'qiqlanadi, zarur yerosti suvlari manbaalari mavjud bo'lmagan hududlarda foydalanadigan hollar bundan mustasno.

Suv obyektlariga oqova suvlarni oqizishga suv obyekti tarkibidagi ifloslanuvchi moddalarning belgilab qo'yilgan me'yorlaridan oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik sharti bilan va suvdan foydalanuvchi bunday oqova suvlarni tabiatni muhofaza qilish va sanitariya nazorat organlari tomonidan belgilab qo'yilgan darajada yetkazib tozalab berish sharti bilangina yo'l qo'yiladi.

Qishloq xo'jalik yerlarinioqova suvlar bilan sug'orish ta'qiqlanadi. Bu yerlarni oqova suvlar bilan sug'orishga tabiatni muhofaza qilish organlari ruxsat bermaydilar.

Ushbu yuqoridagi ko'rilgan tadbirlar bajarilgan holda obyektidagi quyi qismida joylashgan daryodagi suv resurslari saqlanib qolishi va tabiatdagi muvozanat buzilmasligi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida suvga doir munosabatlar "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" gi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Suv obyektlari aholining ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojlarini maishiy, davolash, kurort, sog'lomlashtirish, hordiq chiqarish va boshqa ehtiyojlarini, qishloq xo'jaligi hamda boshqa davlat yoki jamoat ehtiyojlarini qondirish uchun qonunlarda ko'zda tutilgan talab va shartlarga rioya qilingan holatda foydalanishga beriladi.

O'zbekiston Respublikasining yagona davlat suv fondi: daryolar, ko'llar, suv omborlari, boshqa yerusti suv havzalari va hovuzlarining suvlaridan, yerosti suvlari va muzliklardan iborat.

5.3 Suv ta'minoti bosh inshootlarni muhofaza qilish

Suv ta'minotining bosh inshootlarini himoya qilish sanitariya nazorat zonasida quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

- 1) Suv olish manbaasi baland devor bilan o'ralgan bo'lishi kerak va faqat maxsus ruxsatnoma bilan qurish mumkin.
- 2) Suv olish manbasi hududida qihloq xo'jalik ekinlari yetishtirish, yerga ishlov berish, yerga har-xil kimyoviy va tabiiy o'g'itlar solish qa'tiyan man etiladi.
- 3) Suv olish manbaasi maydonida faqat ko'kalamzorlashtirish va daraxt ekish mumkin.
- 4) Suv olish manbaasi oldida va maydonida har-xil qurilish ishlari, madaniy maishiy binolar bo'lmasligi kerak.

Sanitariya nazorat zonasini umumiy maydoni QMQ 2.04.02-97 ga binoan olinadi. Inshootlardan chegaralar ham ushbu hujjat asosida blgilanadi. Loyihada sanitariya nazorat zonasi 7600 metr.kv ni yoki 0.80 ga ni tashkil etadi (IV bobda to'liq hisoblangan)

VIbob. Xayot faoliyati xavfsizligi

VI bob. Xayot faoliyati xavfsizligi

6.1. Xavfsizlikning nazariy asoslari

Mexnat muxofazasi insonning ishlab chiqarishdagi sharoitlari va xavfsizliklari bilan qiziqadi, fuqaro mudofasi esa uning favqulotda xolatlarini o'rganadi. XFX esa kishilik jamiyatining xamma xolatlaridagi sharoitlari va xavfsizliklari bilan qiziqadi va o'rganadi. Boshqacha qilib aytganda XFX mexnat muxofazasi va fuqoro mudofasiga qaraganda keng va universaldir ya'ni ular aniq vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlashning qisman xolatlarini o'rganadi.

Faoliyat bilan barcha shugullanadi-bolalar, kattalar, qariyalar. Shuning uchun xavfsizlik xamma tirik insonlar uchun muximdir.

Mexnat muxofazasining ajralishi ma'lum asosga ega. Chunki, mexnat faoliyatning oliy formasidir.

Bilim soxasida mexnat muxofazasini nisbatan mustakil deb tan olgan xolda, faoliyatning xar xil turlari va inson yashaydigan soxalarining bir-biriga yaqin aloqada bulishga e'tibor berish kerak.

Aniqish joyida bajarilayotgan mexnat faoliyatli natijalari (qayerda mexnat sharoiti a'lo bo'lgan xolatda xam) buish joyi bilan xech qanday aloqada bulmagan qo'p sonli insonlarga ishlab chiqilayotgan maxsulotlardan ajralib chiqayotgan zararli omillar salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Ish joylarida mexnat sharoiti joylarni loyixalash bosqichida ishlab chiqarish vositalarini tayyorlashda x.k fizik jixatdan barpoqilishdan ancha oldin xosilqilinadi.

Mexnat muxofazasining afzalliklari va uni mutloqlashtirish ba'zan mantiqqa mos kelmaydigan qonunlarni qabul qilishga olib keladi. Masalan, ma'lumki bitta transport talofatida jabirlangan xaydovchi va yulovchilar uchun belgilangan bahtsiz xodisalarni tekshirish nizomi buyicha xar xil xuquqiy va moddiy oqibatlar paydo bo'ladi

Tarkibiyjixatdan XFX fanito'rtqisimdan tashkiltopgan ;

1. Nazariy asoslar.
2. Tibbiyjixatlari

3. Ishlabchiqarishdamexnatxavfsizligi

4. Favqulotda vaziyatlar

Faoliyat kishilik jamiyatining borbolibturishi uchun zarur bo'lgan sharoitidir. Mexnat faoliyatining oliy shaklidir.

Faylasuflarning fikricha, insonga berilgan eng ma'qul bo'lgan ta'rif bu Notoadens, Ya'nixarakatlanuvchi inson.

Faoliyat mexnatning shakllari xilma-xildir. Ularturmushda, jamiyatda, madaniyatda, ishlabchiqarishda, ilmda vaboshqa xayotsoxalarida kechadigan amaliyaqliy va ma'naviy jarayonlarning o'z ichiga oladi.

Faoliyat jarayonining modelini umumiy xolda ikkita elementdan tashkil topgan deb qarash mumkin ya'nibirbir bilan to'g'ri va qaytma aloqada bo'ladigan inson va muxitelementlaridir.

Qaytma aloqalar moddiy dunyoning tashqiriga javob beradigan umumiy qonunlariga asoslangan. «Inson-muxit» tizimi ikki maxsatlidir. Birinchisi maqsad ma'lum samaradorlikka erishishdan tashkil topsa, ikkinchisi ko'ngilsiz oqibatlarini bartaraf qilishdan iboratdir.

Xavf – xayot-faoliyat xavfsizligining markaziy tushunchasi bulib, u xodisa, jarayon va ob'ektlarning inson sog'ligiga to'g'ridan to'g'ri yoki bevosita ma'lum sharoitda qaydarajada zarar etkazish qobiliyatini ko'rsatadi, ya'niko'ngilsiz oqibatlarni olib keladi.

Taxlilning maqsadiga ko'ra xatnixarakterlovchi belgilar soni ko'payishi yoki kamayishi mumkin. Xavfning xavf berilgan yuqoridagi ta'rif mavjud bo'lgan standart tushunchalarni xavfli va zararli ishlabchiqarish omillari o'ziga tortuvchi, xamda faoliyatning xamma turlarini xisobga oluvchi juda salmoqli tushunchadir.

Xavf energiyaga ega bo'lgan kimyoviy yoki biologik foal tashkil qiluvchilarni uzida mujasmlashtirilgan xamma tizimlarni, xamda inson xayoti, faoliyati sharoitiga javob bermaydigan tavsiflarni o'zida saqlaydi.

Xavfsizlik – bu faoliyatning xolat bulib ma'lum ximtimollikda xavflarning kelibchiqishini bartaraf qilishdir.

Xavfsizlik – bu insonlaroldiga qo'yilgan maqsatdir.XFXesa maqsadga erishishning vosita, yo'lva usullaridir.

6.2Mexnatmuxofazasiish sharoitlariniyaxshilash

GOST12.0.003-74ga asosan xavfliva zararliomillar uz ta'siriga qarabquyidagilarga bulinadi: fizikaviy, kimyoviy, biologik, va psixo-fiziologik.

FIZIKAVIYOMILLARGA mashina vamexanizmlarning xarakatlanayotgan, aylanayotgan yokisiljiyotgan qisimlarini, mexanizmbilan ko'tarilayotgan yukni, qattiq shovqin vatitrashlarni, xavoning xarorati va namligining yuqoriyoki pastligini, ish joyining ortiqcha yoki kamyoritilganligini va boshkalarni kiritish mumkin.

KIMYOVIYOMILLARGA pestitsitlar,neftmaxsulotlari, mineral ugitar atsetilin ishlabchiqarishda foydalaniladigan boshka gazlarning ta'siri.

BIOLOGIK OMILLARGA mikroorganizmlar –xayvonlar, yuqumli kasalliklar viruslar, bakterialarva ularning ajratgan maxsulotlari, shuningdek zaxarli usimliklar kiradi.

PSIXO – FIZIOLOGIK OMILGA – jismoniyzuriqishlarni(jismoniy kuchsariflabbajariladigan ishlar) va asabiy psixik zuriqishlarni – mexnatning birxilligidan zerikarliligi, aqliy zuriqish va boshqalarni kiritish mumkin.

GOST 12.1.007.76 ga asosan zararlimodalarning arganizmga ta'sirqilish darajasiga qarab 4 ta xavflisinfga bulinadi :

- 1) O'ta xavfli moddalar.
- 2) yuqori xavfli moddalar.
- 3) Quyicha xavfli moddalar.
- 4) kam xavfli moddalar.

Ishchi va xizmatchilar mexnat vazifalarini bajarish paytida ularning sog'ligiga ziyon keltirilsa yoki mayib bo'lib qolsa, moddiy javobgarlik to'lik korxonaga zimmasiga yuklanadi. Ish bilan ta'minlovchilar tomonidan ishchilarni mexnat vazifalaridan foydalanishda ularni shikastlanishi, kasbiy kasallanish yoki salomatligiga boshqa keltirilgan ziyonni qoplash O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Maxkamasining 1994- yil 1- fevralda tasdiklangan (48 – sonli) «Qoidalari»ga asosan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqorolik kodeksining 1006 – moddasida fuqoro mayib kilingan yoki uning sog'ligiga boshqacha shikast etkazilganda jabrlanuvchi oladigan yoki muayyan ravishda olishi mumkin bo'lgan yo'qotilgan ish xaqi, shuningdek salomatligiga shikast etkazilishi tufayli qilgan qo'shimcha xarajatlari, shu jumladan davolanish, qo'shimcha ovqatlanish, dori – darmonlar sotib olish, protez qo'ydirish, birovning parvarishida bulish, sanatoriya – kurortda davolanish, maxsus transport vositalarini sotib olish, boshqa kasbga tayorgarlikdan o'tish xarajatlari agar jabrlanuvchining ana shu yordam va parvarish turlariga muxtojligi xamda ularni bepul olish xuquqiga ega emasligi aniqlansa, ularni qoplanishi lozim.

Mexnat xavfsizligi bo'yicha tashkiliy va profilaktika chora tadbirlarini ishlab chiqish va joriy qilishni, uning umumiy kompleksini boshqarish shuningdek mexnat xavfsizligi buyicha qoida va meyorlarga rioya xamda nazorat qilishni mexnat qonunchiligini maxsus xizmat o'rganlari olib boradi.

Respublika Qishloq va suv xo'jaliki vazirligi qoshida mexnat muxofazasi va texnika xavfsizligi guruxi ish olib boradi. Tumanlarda qishloq xo'jaliki boshkarmalarida – muxat 'uxofazasiga va gexnik xavfsizligiga katta muxandislar, davlat korxonalar va jamoa xujaliklariga texnika xavfsizliklariga katta muxandislar javob beradilar. O'zbekiston Respublikasi mexnat muxofazasi qonuniga asosan davlat korxonalar va jamoa xujvliklarida shtat ro'yxati bo'yicha texnika xavfsizligi va yong'in xavfsizligi buyicha katta muxandisi tayinlanadi.

Sanitariya nazorati – Respublikamiz davlat saritariya razorati ishlab chiqarishda kasaliklarni kamaytirish, tashqi muxitni (suv xavzalari, tuproq va atmosfera xavosi) ifloslanishning oldini olishga, mexnat sharoitini sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan sanitariya gigiena, sanitariya – epidimialogik chora tadbirlarni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlarning o'tkazilishini nazorat qilada, shuningdek kasalliklarni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlarni o'tkazilishini tekshirib turadi.

Qishloq xo'jaligida mehnatni muxofaza qilish O'zbekiston Respublikasining Mehnatni muxofaza qilish to'g'risidagi qonuni bo'yicha va amaldagi o'quv me'yoriy xujjatlar asosida olib boriladi. Ishchi va muxandislar tayorlanganda o'qitiladi, yo'l yo'riqlar beriladi va malaka oshiriladi. Xozirgi zamon qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi zamonaviy texnika bilan jixozlanganligi, ya'ni uning texnika va texnologiyaning takomillashib turishi, ishlab chiqarish jarayoning intensivlashuvi, programmalashtirish, xosilni yuqori sifat darajasida topshirish bilan farq qiladi. Bunda ishlarning davriyligi va mavsumiyligi, foydalanilayotgan energiyaning turliligi (mexanik, issiqlik, elektr, yorug'lik va boshqalar), material va moddalarning (qattiq, suyuq, gazsimon) xar xilligi, yig'ishtirilayotgan xosilning ob-xavo va boshqa sabablarga bog'liqligini, mehnat sharoitlarini me'yorlashtirishda xisobga olish kerak. Mehnat sharoitlarini yaxshilash ishlari bir qancha omillarni xisobga olgan xolda tashkil etiladi. Barcha ishlab chiqarish omillari quyidagilarga bo'linishi mumkin: tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiena, tabiiy-iqlim, iqtisodiy. Mehnat bilan birga yaxshi dam olishni tashkil etish xam shart chunki, dam olish va ish jarayonini to'g'ri takrorlanib turishi shikastlanishlar oldini olishning birdan bir asosiy shartidir. Kishiling ish qobiliyati uning sezilarligiga, ishlab chiqarishdagi xar xil xavfli va zararli omillarga ta'sirchanligiga, ish jarayoning uzluksizligiga bog'liqdir. Agar kishi kun mobaynida uzluksiz me'yorda ko'rsatilgan vaqtdan ortiqcha ishlasa, unda jismoniy charchash bilan bir qatorda ruxiy charchash xam paydo bo'lashi mumkin. Buning ustiga agar ishchiga uzoq vaqt mobaynida juda ko'p qarorlar qabul qilish yoki juda ko'p asboblarning ko'rsatkichlariga qarash to'g'ri kelsa, unda ruxiy charchash jismoniy charchashdan oldin kelishi mumkin. Ish joyida shovqin, titrash, gaz, chang va nurlanishning bo'lishi ruxiy charchashni tezlashtiradi va kishining noto'g'ri xarakat qilishadi, shikastlanishiga yoki avariya xolatining vujudga kelishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ma'muriyat ish va dam olish tartibiga qa'tiyan rioya qilishi kerak.

Me'nat kodeksining 115-moddasiga asosan xodim uchun ish vaqti xaftasiga 40 soatdan oshmasligi kerak. Shu jumladan, ish tartibi xaftasiga besh ish kunida

ikki dam olish kuni bo`lishi mumkin. Ish vaqtining davom etishi (smena) olti ish kunlik ish xaftasida 7 soatdan, besh kunlik ish xaftasida esa sakkiz soatdan oshmasligi lozim. Bu qoidalarni qishloq xo`jaligida xam joriy etsa maqsadga muvofiq bo`lardi. Chunki jismoniy mexnat xam insonni xoldan toydiradi, ishonamizki texnika taraqqiyoti asrida qishloq xo`jaligi xam tubdan o`zgarib qo`l mexnati o`rnini texnikalar egallaydi va qishloq mexnatkashlarining ish ko`lami pasayib ular kamroq va samaraliroq mexnat qiladilar.

6.3. Fuqaro muxofazasi

Fuqoro muhofazasi deganda, insonlarni havfsizligini ularni xavfli va zararli oqibatlardan, havflarning yuzaga kelishini bartaraf qilishdan saqlashdir. Misol uchun, Zangiota tumani Turkiston qishlog`i atrofida magistral kanal joylashgan. Yong`ingarchilik ko`p bo`lganda, kanaldan suv toshish ehtimoli bor. Suv toshqini sodir bo`lishi mumkin unda albbata Turkiston qishlog`ining aholisi bu narsa fojiaga olib kelmasligi uchun bunday falokatga tayor bo`lib turib oldini olishadi. Umuman butun jahonda toshqingarchilik - daryolar, soylar, ko`llarda suv satxining keskin ko`tarilishi oqibatida yuzaga kelib, er yuzasining katta maydonlarini vaqtincha suv bosishidir.

Toshqinlar ko`p xolatlarda kuchli jala, xarorat ko`tarilishi bilan qor va muzliklarning keskin erishi natijasida xavzalardagi suv miqdorining ko`payishidan paydo bo`ladi. Bundan tashqari suv xavzalari atrofidagi yon bag`rlarida ko`chki sodir bo`lishi, qoyalardan tog` jisimlari upirilishi bilan xavzadagi suv toshib chiqishi va tug`onlarning bexosdan buzilib ketishi oqibatida xam sodir bo`lishi mumkin. Odatda bunday toshqinlar juda xavfli bo`ladi. Toshqin-tabiiy ofatlar ichida katta talofat keltiradigan, axolini og`ir taxlikaga soladigan va qisqa vaqt ichida shiddatli bo`ladigani suv toshqinidir. Toshqinlarning yana bir turi shamolning katta tezligi bilan bog`lik bo`lib, dengiz suvini qirg`oqqa ma'lum balantlikda bostirib kelishidan paydo bo`ladi. Lekin, toshqinning bu turi mamlakatimiz xududida uchramaydi. Vatanimizning ta'biy tuzilishi, gidrometeorologik sharoiti, muxandis-gedrogeologik inshootlari boshqa tabiiy ofatlar kabi toshqin bo`lib turishi va uning xafi yuqoriligidan dalolat beradi.

Ayniqsa bu xodisa suv tarmoqlari atrofida juda ko`p tarqalgan. Toshqinlarning xosil bo`lishi, garchan bir xil sababdan bo`lsada, ya'ni ob-xavo sharoitining keskin o`zgarishi natijasida me'yoridan ko`p yog`ingarchilik bo`ishi, axolini yashash joylari va xududlarga turli ta'sir ko`rsatadi. Bular ichida eng kuchlisi xalokatli toshqinlar xisoblanib, ular uzok muddat yoqqan yomg`ir natijasida yuzaga keladi. Avvalo toshqin xavfi bor joylarda xar qanday qurilish inshootlari barpo etishga chek qo`yish kerak.

Zilzila - tabiyatda sodir bo`ladigan eng xavfli xodisalarning biridir. YuNESKO malumotiga ko`ra zilzila yuzaga keladigan iqtisodiy zarar va insonlar xalokati bo`yicha salbiy ofatlarning ichida birinchi o`rinni egalaydi. Xaqiqatdan zilzilaning sodir bo`lish davriligi bir necha o`n yillarni qamrab olsada (ayrim vaqtlarda 100 yillarni) u sodir bo`lganda qisqa (10 - 15 sek) muddat ichida bir necha minglab axoliga ega bo`lgan shaxarlarni vayron qilish qudratiga ega, shunga qaramasdan kishilar bunday xavf oldida esankirab qolmasdan uning oqibatlarini bartaraf qilishga shikastlanganlarga yordam berishga oshiqadilar.

Xalq tilida (o`t balosi, suv balosi, bemaxal falokat kulfatdan asrasin) degan chuqur falsafiy ma'noga ega bo`lgan muloxaza mavjud. Bu albatta yaxshi niyat yaxshi istak, lekin quruq niyat bilan ish bitmaydi, falokat arimaydi. Shunga yarasha xarakat va tayorgarlik bo`lishi zarur. Turar joy maskanlari, tibbiy sharoiti, jismlarning fizik - kimyoviy xususiyati, binolarning loyixa chizmalari qat'iy xisob kitoblar asosida chuqur o`rganilib chiqilgandan so`ng qurilishga ruxsat beriladi.

6.4. Yong`in xavfsizligi

Ob`ektimizda yong`inga quyidagilar kiradi - isitish pechlarini qo`rish yoki ishlatish qoidalarining buzilishi, ishlab chiqarishda yoki uyda olovni extiyotsizlik bilan ishlatish, kerasenda ishlaydigan yoritish yoki qizdirish asboblarini noto`g`ri o`rnatish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish, yashin statik yoki elektor razryadlar mashinalar va ishlab chiqarish jixozlarining nosozligi xamda ularni ishlatish qoidalariga rioya qilmaslik (qurilmalaridagi qisqa tutashuvlar yoki ularning erga ulanib qolishi elektor simlarida nagruskaning yul qo`yilmaydigan darajada ortib ketishi, kantaklari yomon bo`lgan joylarning qizib ketishi va ulardan

uchqun chiqishi, bug` qozonlarini portlashi) qishloq xo`jaligi maxsulotlarining yoki yonilg`ini uz uzidan yonib ketishi sabab bo`ladi. Yong`inning oldini olish tadbirlari - tashkiliy (ko`ngilli o`t o`chiruvchi drujinalari yoki yong`indan muxofazalash drujinalari tuzish ammo orasida tushurtirish ishlari olib borish), yong`in yoki portlash jixatidan xafli xonalarga aloxida konstruktsiyali elektr jixozlar o`rnatishish, nasos pechlar, mashinalar, elektr jixozlardan, shuningdek, oson alanganadigan suyuqliklar saqlanadigan yoki ishlatiladigan joylarda olovdan fodalanishni taqiqlab qo`yish, yashin ko`targichlarni qurish (ob'ektlarni o`tga chidamli matiriyallardan qurish, binolar orasidagi yong`inga qarshi oraliqlarga rioya qilish), yonayotgan binolarda odamlar, xayvonlar va qimmat boxo buyumlarni muvoffaqiyatli ravishda ko`chirishga imkon beradigan choralarni ko`rish (kerakli miqdorda eshiklar, zarur kenglikda karidor yulaklar qurish, ularni tusib qo`yishni man etish), yong`inni o`chirishni osonlashtiradigan tadbirlarni ko`rish (yong`inni o`chirish, narvonlar, yong`in kuzatish vishkalari, suv xavzalari va binolarga kelish yullari qurish, yong`in aloqasi xamda signalizatsiyasini o`rnatishish).

Loyxalashda joriy etiladigan asosiy tadbirlarga quyidagilar kiradi:

1. Bino va inshootlar bosh plani yong`inga qarshi oraliqlarni, joy relefini asosiy shamollar yomonalishini xisobga olib joylashtirish;
2. Bino va inshootlarni ishlab chiqarish aloqasi xamda yong`in jixatidan xavflilik darajasiga ko`ra aloxida doiralarga birlashtirish;
3. Binoni talab etiladigan o`tga chidamligini tanlash;
4. Evakuatsiya yo`llarini xavfsiz qilib planlashtirish;
5. Yong`in jixatidan xavfsiz isitish ventilyasiya va elektr jixozlari sistemasini tanlash.

Ob`ektimizda yong`inga qarshi oraliqlar asosiy shamollar yo`nalishini xisobga olgan xolda binolar shuningdek er-osti va er-usti inshootlari ko`rsatiladi. Bino xamda inshootlar orasidagi yong`inga qarshi masofalar ularning o`tga chidamlilik darajasiga qarab K(P-M.1-71) ga muvofiq olinadi. Xar qaysi ishlab chiqarish binosiga o`t o`chirish avtomabillari bir tomondan (binoning eni 18 m gacha

bo'lganda) kiriladigan yo'laklar bo'lishi kerak. qurilish maydoni 10 ga katta yoki eni 100 m dan keng maydonni egallaydigan binolarga xamma tamondan mashinalar kiradigan yo'llar bo'lishi kerak. Erkin planlashtirilgan territoriyadan binolar devorigacha (yo'l chetidan boshlab) qoldiriladigan masofa 25 m kam bo'lmasligi lozim. O't o'chirish suv xavzalariga gidrantlariga 12-12 m maydonli yoki sirtmoksimon aylanib yuriladigan oxiri berk ko'chalar qurishga yo'l qo'yiladi. Turar joy tumanlari orasida yong'inga qarshi 100 m masofa qoldiriladi, kam qavvatli qurilishlari xamda inshootlari bo'lgan shaxarlarni qayta qurishda bu masofa 75 m gacha qayta qurilishi mumkin. Suv yong'inni o'chirishda eng ko'p ishlatiladigan vositadir. Suv yonayotgan sirtni sovutadi, suv bug' yonayotgan modda atrofidagi yonuvchi gazlar va kislorod miqdorini kamaytiradi (havoda kislorod miqdori 14% gacha bo'lganda ko'pgina moddalar yonishdan to'xtaydi). Suv bilan o'zaro ta'sirlashganda yonuvchi gazlar (kalsiy karbid) ajratadigan moddalar saqlanadigan omborlarda chiqqan yong'inni o'chirishdagina suvdan foydalanilmaydi. Agar suv manbai yaqin joylashib unda suv zarur miqdorda bo'lsa, buning uchun yilning har qanday faslida ham mashinalar yura oladigan yo'l qurish va qirg'og'iga yog'ochdan maydoncha qilish kifoya. Bu maydoncha nasosli avtomobildan tushadigan kuchga dosh berishi, yon tomonlarida panjaralari va suv manbai tomonidan tirkak bo'lishi kerak. Eng pastdagi suv satxini maydonchani balandligini ishlatiladigan nasosning eng katta so'rish balandligini va mavjud so'rish shlanklarining uzunligini xisobga olib tanlash zarur. Yong'indan qo'riqlanadigan qududdagi yong'inga qarshi vodoprovod tarmog'iga yong'in gidrantlari o'rnatiladi. Gidrant-vodoprovod magistralida o'rnatilgan va yong'inni tashqi tomonidan o'chirish uchun chiqarma shlanklarni ulashga mo'ljallangan kolonkadir. Yer ustida o'rnatilgan gidrantlar qishda sovuqdan saqlanishi kerak. Yer ostida o'rnatilgan gidrantlarning yuqori qismi (qopqog'i) olinadigan bo'ladi. Bu hol gidrantli quduqni berkitishga va gidrantni transport bosib ketishi xamda muzlashdan saqlashga yordam beradi. Lekin qishda yoki tunda gidrantni qidirib topishga ancha vaqt ketadi. Qishloq xo'jaligida yong'inlarni o'chirishning o'ziga xos xususiyatlari bor. Yonayotgan suyuqliklarni ko'pik yoki suv bilan o'chirish

zarur. Suv oqimini shunday yo'naltirish kerakki, u yonayotgan suyuqlikni sachratmasdan uning ustiga sirpanadigan yoki rezervuar bortiga ichki tomondan tegadigan bo'lsin. Rezervuar ichidagi alangani rezervuar bo'g'zini qopqoq bilan berkitib o'chirish mumkin. Benzin chala to'ldirilgan rezervuarining portlashdan yoki rezervuardagi neftning qaynab idishdan otilib chiqishidan extiyot bo'lish zarur. Yonayotgan binodan uy hayvonlari yoki parrandalarni olib chiqayotganda cho'chib ketganlarining orqaga qaytishga intilishi tufayli chiqish yo'llari bekilib qolishi mumkin. Qo'y va echkilarni evakuasiya qilishda birinchi navbatda poda serkasini tashqariga olib chiqish kerak. Agar qoramol qaysarlik qilsa ko'zini qop bilan berkitib olib chiqiladi. Otni yuganglab bo'yincha solib yoki egarlab olib chiqish oson. G'alla dalalarida endigina boshlangan yong'in alangasi tuproq, suv sepib, oyoq bilan toptab yoki shox yohud kiyim bilan o'rab o'chiriladi. Agar yong'inni o'chirib bo'lmasa, yordam kelgunga qadar yonayotgan joy atrofni shamol esadigan tomondan 100-150 metr masofada 10-metr kenglikda haydash lozim. Avval bu masofadagi g'allani o'rish va o'rilgan g'allani yig'ishtirib olishi kerak. Dasht yoki o'rmonlarda chiqqan katta yong'inlar daraxt kesilgan palasadan yoki ariqdan ropara olov yoqib o'chiriladi. Kanop, paxta va tolali boshqa moddalardan chiqqan yong'in shu bilan ajralib turadiki, atrof havodagi kislorod kam bo'lganda ham ular yonaveradi, chunki havo g'aramlar va xatto tolalardagi kovakchalar ichida ham bo'lishi ham mumkin. Sirtidagi yong'in o'chirilgandan keyin ham g'aram ichidagi biqisishi uzoq davom etishi mumkin. Chunki suv u yerga yetib bormaydi. Qishloq xo'jaligida maxsus o't o'chirish mashinalari motopompalar va boshqa maxsus texnikalardan tashqari yong'inni o'chirishda keng ko'lamda har xil Qishloq xo'jaligi mashinalaridan foydalaniladi. Yong'ini o'chirish uchun tayyorlab qo'yilgan agregat va mashilarning yon eshiklariga 250 mm kenglikda sariq chiziq tortilib uning ichiga qora rangda "O't o'chirishga moslashtirilgan" deb yoziladi. Yonish doirasida suvni yetkazib va uzatib berishda faqat sisternalar yoki shunga o'xshash hajmlar (hajmi 2-3 m³ dan kam bo'lmagan) xamda uzatish uchun nasoslar bilan jihozlangan mashinalar ishlatiladi. Bu

mashinalar xarakatchan ya'ni avtomobillar asosida bajarilgan yoki tirkama traktorlar yordamida olib yuriladigan bo`lishi shart.

6.5. Birinchi tibbiy yordam

Ob`ektimizda tibbiy yordam deganda, inson jaroxatlanishida birinchi yordam kursatayotgan odam qullarini sovun bilan tozalab yuvishi agar biror sabab bilan buning ilojisi bo`lmasa barmoqlariga yod nastoykasi surib olishi kerak . Yaralangan erga xatto yuvilgan qullar bilan tegish yarani suv yoki dorilar bilan yuvish, yaraga vrach ko`rsatgandan boshqa parashok sepish mumkin emas aks xolda yaraga infektsiya tushirish mumkin. Yaradan qon quyqalarini ketkazish yaramaydi, chunki bunda kuchli qon ketishi mumkin. Qon ketishini to`xtatish uchun yaralangan oyoq qo`lni yuqoriga ko`tarish yarani yumoloqlangan va zararsizlantirilgan bog`lash materiali bilan berkitish xamda yaraning uziga barmoqlar bilan tegmasdan ustidan 4 - 5 daqiqa bosib turish kerak. Agar qon ketishi tuxtasa, u xolda bog`lash materialini olmasdan turib, uning ustiga paxta yoki boshqa paketdan olib yana bitta yostiqla qo`yish va bir oz bosib turib so`ng bintlash zarur. Sinishlar va chiqishlarda ko`rsatilgan birinchi yordamning asosiy vazifasi - shikaslangan bug`inlarni yoki oyoq qo`lni qo`zg`almaydigan qilib va shikaslangan kishi uchun eng qulay vaziyatda maxkamlab quyishdir. Chiqqan joyni solish uchun faqat meditsina xodimiga ruxsat beriladi. Bosh shikastlanib, kishi bexushlanib qolsa quloqlar yoki og`izdan qon ketsa, bosh suyagi chanoqlari singan deb taxmin qilish mumkin. Paylar chuzilganda, masalan odam qiyshiq qadam bosib oyog`i qayrilib ketganida (belgilar bug`inlari qattiq og`riydi va shishib ketadi) ko`rsatiladigan birinchi yordam sovuq - qilish, maxkam tortib bog`lash, tinch saqlashdir. Qutirgan xayvonlarni tishlashi o`lim darajasida xavflidir. Tishlangan uchastkaga virus xayvoning so`lagi orqali o`tib, bosh va orqa miya xujayralarini shikastlantiradi. Induksion oraliq 12 - 60 kun davom etadi.

Birinchi yordam ko`rsatayotgan oqoyotgan qonni tez tuxtatishga xarakat qilmaslik kerak, negaki xayvonning so`lagi qon orqali yaradan chikib ketadi. Tishlangan joy terisi atrofiga keng qilib bir necha marta dizenfektsi yalovchi aralashma (yod - spirtli aralashma, vino - spirti bilan, kaliy permanganat

aralashmasi) yordamida ishlov berilib so`ng zararsizlantirilgan bog`ichni bog`lab qo`yiladi. Ilon chaqishi inson xayotida juda xavfli, chaqqandan so`ng joyida og`riq, qizarish va qon oqishi, oqizda qurish paydo bo`ladi, chaqish, uyqu tortish, ko`ngil aynish, tomir tortishish, so`z buzilishi, yutinish, ayrim vaqtlarda qo`zg`aluvchi qisimlarning falajlanishi vujudga keladi. Chaqqan vaqtning birinchi ikkinchi daqiqasi ichida, chaqqan joyinng yuqori qismidan qon tuxtatiladigan jgut (tasma), buramalar qo`yiladi, so`ngra chaqqan joydagi teri qon chiqquncha kesiladi va shu joyda surib tashlash uchun banka qo`yiladi. Keyingi yaraga kaliy permanganat yoki natriy gidro karbanat aralashalari yordamida ishlov berilib, bog`lagich bilan bog`lab qo`yiladi. Og`riq va shishni kamaytirish uchun teriga gidrokardizont surtma suriladi. Ko`p chaqishlardan so`ng birinchi yordam ko`rsatilib jabirlanuvchini davolash punktiga eltish lozim. Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish omillaridan biri uni elektirlashtirishdir. U mexnatni engillashtirish bilan birga bir qator odamlar xayotiga va sog`ligiga juda katta xavf tug`diradi. Boshqa xavfli manba'lardan elektr tokini asboblarsiz ma`lum masofada turmasdan aniqlab bo`lmaydi. Elektr tokidan ham jarohatlanishning har xil sharoitlari bo`lishi mumkin. Masalan, sim yoki tok o`tkazuvchi ochiq qismlarga tegib ketishdan ximoyalanganligi buzilgan bo`lsa, yoy orqali elektr tokini ta`sir qilishi, uskunalarning metall qismlariga tegib ketishdan, tasodifan kuchlanish ostiga tushib qolish, elektr uzatuvchi qismlarga katta o`lchamli mashinalar (avtomabillar, dong urish va paxta terish mashinalari) ruxsat etilmagan darajada yaqinlashuvi va boshqalarda jaroxatlanish mumkin. Elektr xavfsizlik (GOST 12.1.009-76) - tashkiliy va texnik chora tadbirlar tizimi va vositalaridir, ular odamlarni elektr maydonidan va statik (turg`un) elektr tokini zararli va xavfli ta`siridan ximoyalalanishini taminlaydi. Elektr toki odam organizimiga va xayvonlarga juda uziga xos murakkab shaklda vujudga keladi. Organizmdan elektr tokning o`tishi natijasida kimyoviy issiqlik va biologik ta'sir ko`rsatadi. Agar tok urgan kishi simlardan birini changaklab ushlab qolgan bo`lsa, u orqali o`tayotgan tokni uzish zarur, buning uchun uni simdan emas, balki erga tutashgan qisimlardan ajratish kerak, bu maqsatda uning tagiga quruq taxta tizish yoki quruq arqon

